

X.Urdushev, M.Mavlyanov,
S.Eshanqulov

SOHADA
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA
TEXNOLOGIYALARI

II-qism



o'quv qo'llanma

ISBN 978-0010-8602-5-5



9 780010 860255

X.Urdushev, M.Mavlyanov, S.Eshanqulov

Sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. II-qism

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024 yil 27 dekabrda 485-sonli buyrug'i bilan nashr etishga
ruxsat berilgan

O'quv qo'llanma

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nashr matbaa markazi, 2025**

UO'K: 556.023/542.06
KBK: 16.0-16.3

X.Urdushev, M.Mavlyanov, S.Eshanqulov. Sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. II-qism. O'quv qo'llanma. – Samarqand: Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nashr matbaa markazi, 2025. 200 b.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta'limning 800000–Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya bilim, 810000 – qishloq xo'jaligi va 840000 - veterinariya ta'lim sohalarining: 60811500-Zooinjeneriya, 60840100-Veterinariya meditsinasi, 60840200-Veterinariya farmasevtikasi, 60840300-Veterinariya sanitariya ekspertizasi bakalavriyat ta'lim yo'nalishlari talabalariga o'vuv qo'llama sifatida tavsiya etgan.

O'quv qo'llanmada veterinariya, chorvachilik, qishloq xo'jaligi va iqtisodiyotga oid masalalarni hal etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tatbiqlari atroflicha yoritilgan. Shu boisdan mazkur o'quv qo'llanmadan qishloq xo'jaligi OTMLarining “Qishloq xo'jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalar” fani o'qitiladigan: “60810400-Agronomiya, 60810500-O'simliklar himoyasi va karantini”, “60810600-Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi”, “60811100-Dorivor o'simliklar yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi”, “60830100-Suv bioresurslari va akvakultura”, hamda “Axborot-kommunikatsion texnologiyalar” fani o'qitiladigan “60820100-O'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish” bakalavriyat ta'lim yo'nalishlari talabalari, magistrleri o'quv va amaliy faoliyatlarida foydalanishlari mumkin.

Mualliflar:

- | | |
|-----------------|---|
| Urdushev X. | - SamDVMCHBU “Axborot texnologiyalari va tabiiy fanlar” kafedrası dotsenti, i.f.n., |
| Mavlyanov M.T. | - SamDVMCHBU “Axborot texnologiyalari va tabiiy fanlar” kafedrası katta o'qıtuvchısı, |
| Eshanqulov S.X. | - SamDVMCHBU “Axborot texnologiyalari va tabiiy fanlar” kafedrası o'qıtuvchısı. |

Taqrizchilar:

- | | |
|----------------|--|
| Safarova L.O'. | SamDVMCHBU “Axborot texnologiyalari va tabiiy fanlar” kafedrası mudiri, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. |
| Babajonov B.B. | Muhammad al-Xorazimiy nomidagi TATU Samarqand filiali dotsenti, f.-m.f.n. |

ISBN: 978-9910-8602-5-6

MUNDARIJA

II-qismga kirish	5
6-amaliy mashg'ulot: Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari.	
Microsoft Access.....	6
Access ilovasida ma'lumotlar bazasini tuzish yo'llari	7
Access ilovasida da sohaga oid ma'lumotlar bazasini tuzish	11
7-amaliy mashg'ulot: Sohaga oid korrelyasion-regrission masalalar yechish.....	50
Korrelyatsion tahlil. Korrelyatsiya koeffitsienti	50
Sohaga doir korrelyatsiya va regressiya masalalari	51
8-amaliy mashg'ulot: Kompyuter tarmoqlari. Sohada Internet xizmatlari	79
Kompyuter tarmoqlari. IP-adres.....	79
Sohada Internet xizmatlaridan foydalanish	84
9-amaliy mashg'ulot: Sohada bulutli texnologiyalar	115
Bulutli texnologiyalar haqida	115
Sohada bulutli texnologiyalardan foydalanish	117
Ta'limda bulutli texnologiyalar	131
Masofadan o'qishda bulutli texnologiyalar	132
10-amaliy mashg'ulot: Axborot xavfsizligi	141
Axborot xavfsizligi	141
Kompyuter virusi va uning turlari	142
Antivirus dasturlari	143
Kompyuter va tarmoq viruslarining xususiyatlari	145
Xavfsizlik devori (brandmauerlar)	146
Antivirus va brandmauerlarni kompyuterga o'rnatish	149
GLOSSARIY	164

II-qismga kirish

“Sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari” o‘quv qo‘llanmasi ikki qismdan iborat bo‘lib, uning birinchi qismida “Axborot va uning turlari, o‘lchov birliklari”, “Axborotni kodlash”, “Matnli axborotlarni qayta ishlash texnologiyalari. Microsoft Word”, “Jadvalli axborotlarni qayta ishlash texnologiyalari. Microsoft Excel” va “Taqqimotli axborotlarni qayta ishlash texnologiyalari. Microsoft PowerPoint” kabi mavzularni qamrab olgan. E’tiboringizga havola etilayotgan o‘quv qo‘llanmani II-qismda “Ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlari. Microsoft Access”, “Sohaga oid korrelyasion-regrission masalalar yechish”, “Kompyuter tarmoqlari. Sohada Internet xizmatlari”, “Sohada bulutli texnologiyalar” va “Axborot xavfsizligi” mavzulari yoritilgan.

6-amaliy mashg'ulot: Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari. Microsoft Access

Reja:

Access ilovasida ma'lumotlar bazasini tuzish yo'llari

Access ilovasida sohaga oid ma'lumotlar bazasini tuzish

MBlari ma'lumotlarni saqlash, o'zgartirish va tezkor qidirish uchun ishlatiladi.

Ma'lumot (berilgan)lar ma'lum bir shaklda taqdim etilgan axborot bo'lib, u inson yoki axborot vositasi tomonidan yig'ish, saqlash va qayta ishlashni avtomatlashtirish imkonini beradi.

Ma'lumotlar – doimiy saqlash, uzatish va (avtomatik) qayta ishlashga yaroqli ma'lumotlarni ifodalash shakli.

Ma'lumotlar bazasi (MB) – bu tartiblangan ma'lumotlarni saqlovchi va qayta ishlovchi axborot modeli hisoblanadi. Soddaroq qilib aytganda, bir xil turdagi axborotlarni o'zida saqlovchi va berilgan so'rovlar orqali ularni taqdim etuvchi model.

Misollar: bir xil turdagi kitoblarni o'zida saqlaydi kitob javoni; bir tipdagi ism, familiya, telefon raqamlari kabi ma'lumotlarni saqlovchi telefon kitobchasi; talabalar ismi familiyasi, fanlar nomi, yil va sanalar, davomat, o'zlashtirish kabi ma'lumotlarni saqlovchi guruh jurnali MB bo'ladi.

Ma'lumotlar bazasi nuqtai nazaridan ma'lumotlar deyilganda, ma'lum bir shaklda qayd qilingan, qayta ishlash, saqlash va uzatish uchun yaroqli xabar tushuniladi

Ma'lumotlar bazasi deganda, ma'lumotlarni shunday o'zaro bog'langan to'plami tushuniladiki, u mashina xotirasida saqlanib, maxsus ma'lumotlarni bazasini boshqarish tizimi orqali to'ldirilishi, o'zgartirilishi, takomillashtirilishi mumkin.

Access ilovasida ma'lumotlar bazasini tuzish yo'llari

Ma'lumotlar bazasi (MB)ni tuzishda **Microsoft Access** ilovasini rus tilidagi versiyasidan foydalanamiz. Shu boisdan **Access** ilovasiga oid ob'yekt va buyruqlar nomlarini rus tilidagi atamalaridan foydalanamiz.

Ma'lumotlar bazasi fayllari.

Access ilovasi bitta fayldagi ma'lumotlarni boshqarish uchun ishlatiladi. **Access** ma'lumotlar bazasi fayli o'zida quyidagilarni mujassamlashtiradi:

- **Таблицы**—ma'lumotlarni saqlash uchun **jadvallar**. Ma'lumotlar jadvallarda saqlanadi, ular so'rov, forma va hisobotlardan ko'riladi. Ma'lumotlar o'zgartirilganda, ular paydo bo'lgan joyda avtomatik ravishda yangilanadi.

- **Запросы**—jadvallardagi kerakli ma'lumotlarni qidirish va olish uchun **so'rovlar**. **So'rov(lar)** belgilangan shartlarga javob beradigan jadval (yoki bir nechta jadval) dagi ma'lumotlarni topish va chiqarib olish uchun tuziladi. So'rovlar, shuningdek, bir vaqtning o'zida jadval ma'lumotlaridagi yozuvlarni yangilash yoki o'chirish va ma'lumotlar asosida oldindan belgilangan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun ishlatiladi.

- **Формы**—jadvallardagi ma'lumotlarni ko'rish, qo'shish va o'zgartirish uchun shakllar. Shakllar ma'lumotlarni bitta satrda ko'rish, kiritish va tahrirlash (**Создание vkladkasi Форма** buyrug'i bilan) uchun ishlatiladi. Bundan tashqari so'rovlar yordamida ma'lumotlarni boshqa ilovalarga yuborish (eksport qilish) kabi amallarni bajarish uchun ishlatiladi. Masalan, **MB** ma'lumotlarni **Word, Excel, PDF** kabi ilovalarga eksport qilish mumkin.

- **Отчеты**—ma'lumotlarni ma'lum formatda tahlil qilish va chop etish uchun **hisobotlar**. **Hisobotlar** – ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish yoki ularni muayyan talablarga ko'ra formatlab chop etish uchun tuziladi.

Jadvalning har bir maydoni aniq bir tipga ega bo'ladi.

Тип—bu “**maydon**”larni turli xil “**yozuv**”larda qabul qiladigan qiymatlar to'plamini ifodalaydi. Maydondagi yozuvlar tipiga qarab ular



ustida bajariladigan amallar tartibi aniqlanadi. Ma'lumotlar bazasi maydonlari tiplari:

Короткий текст (Qisqa matn) – matnli va sonli belgiladan iborat bo'ladi (255 tagacha belgi);

Длинный текст (Uzun matn) – uzun matndan iborat (65 535 tagacha belgi);

Числовой (Sonli) – faqat sonlardan iborat bo'ladi;

Дата и время (Sana va vaqt) – kun/oy/yil ko'rinishidagi kalendar kunlaridan iborat maydonlardan iborat bo'ladi;



6.1.1-rasm. **Таблица** va **Конструктор** buyruqlari bilan tuziladigan jadval maydonlariga o'rnatiladigan tip (tur) lar ro'yxati.

Денежный (Pul birligi) – pul birliklaridagi ma'lumotlar uchun;

Счетчик (Hisoblagich) – avtoraqamlash, yozuvlar hisobini identifikatsiyalash uchun;

Логический (Mantiqiy) – bu tipdagi maydonlar ikkita **Истина-Лож** ("Rost"-“Yolg'on”) kabi qiymatlarni qabul qiladi;

Поле объекта OLE (OLE ob'ektlar maydoni) – bu OLE (*Object Linking and Embedding*, ob'ektlarni bog'lash va joylashtirish) ob'ektlarni (grafik, audio, video va b.) qo'shish tipi;

Гиперссылка (Giperhavola) – Giperhavola o'rnatish;

Вложение (Biriktirish) – Tashqi ob'ektlar (fayllar)ni biriktirish;

Вычисляемый (Hisoblanadigan) – Turli xil ko'rinishdagi hisoblashlar kiritiladigan tip.

Microsoft Access 2016'da jadvallar **Таблица** va **Конструктор таблиц** buyruqlari bilan tuziladi. Ikkala usulda ham dastavval: 1) jadval maydonlarining nomi; 2) maydon ma'lumotlarining tipi (turi) o'rnatiladi (6.1.1-rasm).

Access'da ma'lumotlar bazalari 2-o'lchamli jadvallardan iborat bo'ladi.

Access jadvalini ustuni **Maydon (Поля)** deb ataladi. Har bir maydonda ob'ektning xarakteristikasiga oid ma'lumotlari keltirilishi mumkin. Maydon nomi 255 ta belgidan iborat bo'lgan qator (satr) bo'lib, u bo'sh joy (пробел)ni ham o'z ichiga oladi. Masalan, ob'ektning nomi **Reyting daftarchasi №** kabi bo'lishi mumkin (6.1.1-jadval).

6.1.1-jadval

Reyting daftarchasi №	Familiyasi	Ismi	Sharifi	Tug'ilgan kuni, oyi va yili	Guruhi
762532	Botirov	Ali	Komilovich	12.01.2004	101
762538	Shodiev	Sobir	Dustovich	18.08.2003	101

762576	Shrkirova	Sanam	Amirovna	27.09.1999	107
--------	-----------	-------	----------	------------	-----

Access jadvalini satri **Yozuv (Запись)** deb nomlanadi. Har bir “**yozuv**” ob'ektga tegishli ma'lumotlardan iborat bo'ladi.

Bitta **yozuv** o'zida bitta **ob'ekt** haqidagi axborotlarni saqlaydi.

Demak, **Microsoft Access** ma'lumotlar bazasi – bitta ma'lumotlar bazasi faylida saqlanadigan har xil turdagi ob'ektlardan iborat. Ushbu ob'ektlar turli xil ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va o'zgartirish, shuningdek, ma'lumotlar bazasi ma'lumotlarini foydalanuvchilarga qulay shaklda taqdim etish uchun mo'ljallangan.

Har bir maydon unikal nom va ma'lumotlar turiga ega bo'lishi kerak.

Jadval strukturasi deganda ularning nomlari, turlari va xossalariga ega bo'lgan jadval maydonlari to'plami tushuniladi.

Ma'lumotlarni tezroq olish uchun, foydalanuvchi bir yoki bir nechta maydonga kalitlar o'rnatishi mumkin. Har bir yozuv uchun maydon kalitlari unikal ahamiyatga ega bo'ladi.

Jadvalda kerakli yozuvni topish uchun maydonlarga kalitlar oʻrnatiladi va ular “qidiruv kalitlari usuli” deb ataladi.

Kalitning vazifasi - jadval maydonlaridan birining qiymatidan foydalangan holda yozuvni topishdan iborat. Bu maydon – **kalitli maydon** yoki **kalit oʻrnatilgan maydon** deb ataladi.


Agar kalitlardan biri unikal boʻlsa, ya'ni uning qiymatlari jadvaldagi barcha yozuvlar orasida takrorlanmasa, u birlamchi kalit deb ataladi. Birlamchi (yoki asosiy) kalit har doim faqat bitta yozuvga ishora qiladi. Boshqa kalitlar esa - ma'lum bir yozuvlar toʻplamiga ishora qiladi va qiymatlari takrorlanishi mumkin.

Odatda, maxsus raqamli maydon birlamchi kalit vazifasini bajaradi, jadvalga yozuvlar qoʻshilganda uning qiymati MBBT tomonidan avtomatik ravishda oshiriladi. Bunday maydon identifikator deb ataladi.

		Поля(Столбец) - Maydon (Ustun)				
Maydonlar nomi ►	Запись (Строка)-(Yozuv (Satr)) ►	▼	▼	▼	▼	▼
		Поле1 (1-maydon)	Поле2 (2-maydon)	Поле3 (3-maydon)	Поле4 (4-maydon)	Поле... (..-maydon)
						...
						...

		Поля (Stolbes) - Maydon (Ustun)				
Maydonlar nomi ►	1-Yozuv ►	▼	▼	▼	▼	▼
		№	Familiya	Ism	Fakultet	...
	2-Yozuv ►	1	Alimov	Vali	Zootexniya	
		2	Komilov	Sobir	Biotexnologiya	
		...				

6.1.2-rasm.



6.1.3-rasm.

Ma'lumotlar bazasini tuzish bosqichlari:

1-bosqich. Ma'lumotlar bazasini loyihalash. Bu bosqichda MB tarkibiga qanday jadvallarni kirishi, jadvallar tarkibi (jadval o'lchamlari), har bir jadvalda qaysi maydonlar kalit maydoni sifatida tanlanishi aniqlanadi.

2-bosqich. Tarkib (Struktura)ni tuzish. Aniq bir MBBT yordamida jadval tarkibi ifodalaniladi;

3-bosqich. Yozuvlarni kiritish. Jadvallarni aniq ma'lumotlar bilan to'ldirish.

Ilovada yangi MB fayllariga **Database1, Database2,...** nomlarini beradi va kompyuter xotirasida ***.accdb** kengaytma bilan saqlaydi.

Имя файла darchasiga fayl nomi yoziladi (masalan, **Guruh talabalari**) va **Создать** buyrug'i beriladi. Natijada, **Access** oynasi 6.1.3-rasmda keltirilgan ko'rinishda ochiladi.

Access ilovasida da sohaga oid ma'lumotlar bazasini tuzish

6.1.1-vazifa. Access 2016'da jadvallar tuzish: “Таблица”(Jadval) usuli.

Vazifa topshriqlari:

- 1) Access 2016'da “OTM axboroti.accdb” yangi fayl tuzing;
- 2) 6.1.1-jadval ma'lumotlari asosida Access 2016'ni Таблица buyrug'i bilan “Fakultet” nomli MB jadvalini tuzing;
- 3) Tuziladigan jadval maydonlari tipini aniqlang;
- 4) Tuzilgan ma'lumotlar bazasi jadvaliga 6.1.2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarni kiriting.

6.1.2-jadval

Ma'lumotlar bazasi jadvalini tarkibi

MB jadvali maydon nomlarini ko'rinishi						
№	Fakultet	Yo'nalish	Bosqich	Guruh	Familiya	Ism
MB yozuv kataklariga ma'lumotlarni kiritish namunasi:						
1	Zooinjeneriya	Zooinjeneriya	1	101	Botirov	Ali
2	Biotexnologiya	Veterenariya farmatsevtikasi	1	102	Shodiyeva	Guzal
3	Agrotexnologiya	Agronomiya	2	205	Komilov	Sobir

4	Veterinariya profilaktikasi	Veterinariya meditsinasi	4	403	Sattorova	Lola
...						

Vazifani bajarilishi:


1-qadam. Tuziladigan MB jadvalida maydon tiplari quyidagicha bo‘ladi:

6.1.3-jadval

Jadvali maydonlari nomi va ma’lumotlar tipi


Maydon nomi (Имя поля)	Ma’lumotlar tipi (Тип данных)	Maydon xossasi (Свойства поля)
№	Код- Hisoblagich	Katta butun son (Длинное целое)
Fakultet	Краткий текст - Qisqa matn	60 belgi
Yo‘nalish	Краткий текст - Qisqa matn	50 belgi
Bosqich	Числовой - Sonli	15 belgi
Guruh	Числовой - Sonli	15 belgi
Familiya	Краткий текст - Qisqa matn	30 belgi
Ism	Краткий текст - Qisqa matn	30 belgi

2-qadam. Создание vkladkasini Таблицы guruhiga mansub Таблица buyrug‘ini beramiz.




6.1.4-rasm.

3-qadam. “Щелкните для добавления”ni sichqoncha bilan bosamiz.




6.1.5-rasm.

4-qadam. Ochilgan maydon tiplari ro‘yxatidan: “Краткий текст”ni tanlaymiz.




6.1.6-rasm.

5-qadam. Поле1 (1-maydon) nomli maydonga **Fakultet** soʻzini yozamiz.




6.1.7-rasm.




6.1.8-rasm.

6-qadam. Shu tartibda 6.1.1-jadvalda keltirilgan maydon nomlarini **Таблица1** jadvaliga kiritamiz (6.1.9-rasm.).




6.1.9-rasm.


7-qadam. Tuzilgan jadvalga yangi nom berib kompyuter xotirasiga yozamiz. Buning uchun **Файл** vkladkasidan **Сохранить** buyrugʻini beramiz. **Сохранение** muloqat oynasini **Имя таблицы** darchasidagi **“Таблица1”**ni oʻrniga **“Fakultet”** soʻzini yozib **ОК** tugmasini bosamiz (6.1.10-rasm.). Natijada ilova oynasi 6.1.12-rasmda keltirilgan koʻrinishni oladi.



6.1.10-rasm.



6.1.11-rasm.



6.1.12-rasm.

8-qadam. Tuzilgan jadvalga 6.1.2-jadvalda keltirilgan boshlang'ich ma'lumotlarni kiritamiz. Natijada tuzilgan jadval 2.1.13-rasmda keltirilgan ko'rinishni oladi.

Код	Fakultet	Yo'nalish	Bosqich	Guruh	Familiya	Ism
1	Zooinjeneriya	Zooinjeneriya (turlari bo'yicha)	1	101	Botirov	Ali
2	Biotexnologiya	Veterinariya biotexnologiyasi	1	102	Shodiyeva	Guzal
3	Agrotexnologiya	Agronomiya (yem-xashak ekinlari)	2	205	Komilov	Sobir
4	Veterinariya profilaktikasi	Veterinariya meditsinasi	4	403	Sattorova	Lola
*	(№)		0	0		

2.1.13-rasm.

6.1.2-vazifa. Access 2016'da jadvallar tuzish: Конструктор таблиц (Jadval konstruktori) usuli

Vazifa topshiriqlari:

- 1) Access 2016'da “OTM axboroti.accdb” faylni yuklang;
- 2) 6.1.2-jadval ma'lumotlari asosida Access 2016'ni Конструктор таблиц buyrug'i bilan “Guruh haqida ma'lumot” nomli MB jadvalni tuzing;
- 3) Tuziladigan jadval maydonlari tipini belgilang (6.1.5-jadval);
- 4) Tuzilgan ma'lumotlar bazasi jadvaliga 6.1.4-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarni kiriting.

6.1.4-jadval

Ma'lumotlar bazasi jadvalini tarkibi

№	Yo'nalish	Guruh	Familiya	Ism	Tug'ilgan kuni oyi, yili	Pasport seriyasi va raqami	Turar joyi
1	Zooinjeneriya	101	Botirov	Ali	10.12.2001	SE 167...	Samarqand shahri, Navoiy kuchasi, 75 uy
2	Veterinariya farmatsevtikasi	102	Shodiyeva	Guzal	06.08.2002	AB 678...	Andijon sh., S.Raximov kuchasi, 12 uy
3	Agronomiya	205	Komilov	Sobir	31.04.200	AA 127..	Jomboy tumani, Sobirota MFY
4	Veterinariya meditsinasi	403	Sattorova	Lola	31.11.1998	AS567...	Nurobod tumani, Qizilkarvon qishlog'i
...							

Vazifani bajarilishi:


1-qadam. Tuziladigan MB jadvalida maydon tiplari quyidagicha bo‘ladi:

6.1.5-jadval

Jadvali maydonlari nomi va ma’lumotlar tipi

Maydon nomi (Имя поля)	Ma’lumotlar tipi (Тип данных)	Maydon xossasi (Свойства поля)
№	№ - Hisoblagich	Katta butun son (Длинное целое)
Guruh №	Числовой - Sonli	10 belgi
Familiya	Краткий текст - Qisqa matn	30 belgi
Ism	Краткий текст - Qisqa matn	30 belgi
Tug‘ilgan kuni oyi, yili	Дата и время – Sana va vaqt	20 belgi
Pasport seriyasi va raqami	Краткий текст - Qisqa matn	20 belgi
Turar joyi	Краткий текст - Qisqa matn	60 belgi

2-qadam. Создание vkladkasini Таблицы guruhiga mansub Конструктор таблиц buyrug‘ini beramiz (6.1.4-rasmga qarang).




6.1.14-rasm.


Natijada ilova oynasi 6.1.14-rasmga keltirilgan ko‘rinishda ochiladi:

3-qadam. Конструктор таблиц jadvaliga 6.1.4-jadvalda keltirilgan maydon nomlarini kiritamiz. Buning uchun 1) **Имя поля** maydoniga “№” belgisini kiritamiz; 2) **Тип данных**'ni sichqoncha bilan faollashtirsak, maydon tiplari ro‘yxati ochiladi. Bu ro‘yxatdan “Счётчик”ni tanlaymiz; 3) “**Guruh №**” maydonini tipi 6.1.2-jadvalga


ko'ra **Числовой** (Sonli) bo'ladi. Shu tartibda jadvalni qolgan maydonlari nomini kiritib, tipini belgilaymiz (6.1.15-6.1.17-rasmlar).



6.1.15-rasm.




6.1.16-rasm.



6.1.17-rasm.


4-qadam. Tuzilgan jadvalga yangi nom berib kompyuter xotirasiga yozamiz. Buning uchun **Файл** vkladkasidan **Сохранить** buyrug'ini beramiz. **Сохранение** muloqat oynasini **Имя таблицы** darchasidagi

“Таблица1” yozuvini o‘rniga “Групп haqida ma’lumot”ni yozib ОК tugmasini bosamiz (6.1.18-rasm.).



6.1.18-rasm.

Natijada ilova oynasi 6.1.19-rasmda keltirilgan ko‘rinishni oladi.



6.1.19-rasm.

5-qadam. Tuzilgan jadvalga 6.1.4-jadvalda keltirilgan boshlang‘ich ma’lumotlarni kiritamiz. Natijada tuzilgan jadval 6.1.20-rasmda keltirilgan ko‘rinishni oladi.

No	Yo'nalish	Групп №	Familiya	Ism	Tug'ilgan kur	Pasport seriy	Turar joyi
1	Зооинженерия (turlari bo'yicha)	101	Botirov	Ali	10.12.2001	SE 167...	Samarqand shahri, Navoiy kuchasi, 75 uy
2	Veterinariya biotexnologiyasi	102	Shodiyeva	Guzal	06.08.2002	AB 678...	Andijon sh., S.Raximov kuchasi, 12 uy
3	Агрономия (yem-xashak ekinlari)	205	Komilov	Sobir	09.12.2002	AA 127..	Jomboy tumani, Sobirova MFY
4	Veterinariya meditsinasi	403	Sattorova	Lola	09.12.2016	AS567...	Nurobod tumani, Qizilkarvon

6.1.20-rasm.

6.1.3-vazifa. Access 2016'da formalar tuzish: Пустая форма (Bo'sh shakl) usuli.

- 1) “Факультет” nomli MB jadvali asosida Пустая форма (Bo'sh shakl) forma tuzing;
- 2) Yangi tuzilgan forma nomini “Факультет 1 форма”deb nomlang.

1-qadam. Создание vkladkasidan Пустая форма buyrug‘ini beramiz. Natijada **Form1** nomli bo‘sh forma shakli yuklanadi (6.1.21-rasm.).


2-qadam. Список полей panelidan Показать все таблицы tugmasini bosamiz (6.1.22-rasm.).

3-qadam. Список полей panelidan “Fakultet” + markerini faollashtiramiz (6.1.23-rasm.).


Natijada ilova oynasi 6.1.24-rasmdagi ko‘rinishni oladi. Список полей panelida “Fakultet” jadvalida mansub maydon nomlarini ro‘yxati keltiriladi.

4-qadam. Formani tuzishga o‘tamiz. Sichqoncha bilan 1-maydon nomi “Код”ni faollashtiramiz va kontekst menyudan Добавление поля в представление buyrug‘ini beramiz. Yoki yozuv ustida siqonchani tez-tez ikki marta bosamiz. Natijada maydon nomi formaga o‘rnatiladi (6.1.25-rasm.).


Shu tartibda qolgan maydon nomlarini formaga o‘tkazamiz.




6.1.21-rasm.




6.1.22-rasm.



6.1.23-rasm.




6.1.24-rasm.



6.1.25-rasm.

5-qadam. Формат vkladkasidan shrift, shrift o'lchami, shrift qalinligi buyruqlari bilan tegishli o'lchamlarni o'rnatamiz (6.1.26-6.1.27-rasmlar.).



6.1.26-rasm.

6.1.27-rasm.

6-qadam. **Файл** vkladkasi **Сохранить** buyrug'ini beramiz **Сохранение** oynasidan **“Form1”**ni o'rniga **“Fakultet 1 forma”**ni yozib, **OK** tugmasini bosamiz.

6.1.28-rasm.


7-qadam. **Главная** vkladkasidan **Режим: Режим формы** buyrug'ini bersak, tuzilgan forma 6.1.29-rasmida keltirilgan ko'rinishni oladi.

6.1.29-rasm.


6.1.4-vazifa. Access 2016'da formalar tuzish: “Форма” (Shakl) usuli.

1) “**Fakultet**” nomli MB jadvali asosida “**Форма**” usuli bilan forma tuzing;


2) Yangi tuzilgan forma nomini “**Fakultet 2 forma**”deb nomlang.



6.1.30-rasm.



6.1.31-rasm.



6.1.32-rasm.

1-qadam. Navigasiyalar panelidan “**Fakultet**” jadvalini faolashtiramiz. Keyin **Создание** vkladkasidan **Форма** buyrug‘ini beramiz.

Natijada “**Fakultet**” nomli forma shakli o‘rnatiladi (6.1.30-rasm.).

2-qadam. **Файл** vkladkasi **Сохранить** buyrug‘ini beramiz **Сохранение** oynasidan “**Form1**”ni o‘rniga “**Fakultet 1 forma**”ni yozib, **OK** tugmasini bosamiz.

3-qadam. **Формат** vkladkasidan shrift, shrift o‘lchami, shrift qalinligi buyruqlari bilan tegishli parametrlarni o‘rnatamiz.

4-qadam. **Главная** vkladkasidan **Режим:Режим формы** buyrug‘ini bersak, tuzilgan forma 6.1.34-rasmida keltirilgan ko‘rinishni oladi.

Код	1
Fakultet	Zooinjeneriya
Yo'nalish	Zooinjeneriya (turlari bo'yicha)
Bosqich	1

6.1.33-rasm.

Код	1
Fakultet	Zooinjeneriya
Yo'nalish	Zooinjeneriya (turlari bo'yicha)
Bosqich	1
Guruh	101
Familiya	Botirov
Ism	Ali

6.1.34-rasm.


6.1.5-vazifa. Access 2016'da formalar tuzish: Мастер форм (Shakl ustasi) usuli.

1) “**Fakultet**” nomli MB jadvali asosida **Мастер форм** usuli bilan forma tuzing;


2) Yangi tuzilgan forma nomini (“**Fakultet 3 forma**”) deb nomlang.

1-qadam. Navigasiyalar panelidan “**Fakultet**” jadvalini faolashtiramiz. Keyin **Создание** vkladkasidan **Мастер форм** buyrug‘ini beramiz.

Natijada **Создание форм** muloqot oynasi ochiladi. **Доступные поля** darchasida yangi forma tuzish uchun kerak bo‘lgan maydon nomlarini ro‘yxati keltiriladi. Bu maydondan kerakli maydon nomini ajratamiz, masalan “**Код**” va  tugmasini bossak, maydon nomi **Выбранные поля** darchasiga o‘rnatiladi (6.1.35-rasm.).




6.1.35-rasm.



6.1.36-rasm.

2-qadam. Shu tarzda yangi tuziladigan formani qolgan maydon nomlari uchun amalga oshiramiz va va **Готово** tugmasini bosamiz (6.1.37-rasm.).

3-qadam. Файл vkladkasi **Сохранить** buyrug'ini beramiz.



6.1.37-rasm.




6.1.38-rasm.

6.1.6-vazifa. Access 2016'da formalar tuzish: “Конструктор форм” (Forma konstruktora) usuli.

1) “Fakultet” nomli MB jadvali asosida **Конструктор форм** usuli bilan forma tuzing;


2) Yangi tuzilgan forma nomini “**Fakultet 4 forma**”deb nomlang.

1-qadam. Navigasiyalar panelidan “Fakultet” jadvalini faolashtiramiz. Keyin **Создание** vkladkasidan **Конструктор форм** buyrug‘ini beramiz.




6.1.39-rasm.

2-qadam. **Конструктор** vkladkasidan **Добавить поля** buyrug‘ini beramiz. Natijada **Список полей** (Maydonlar ro‘yxati) panli o‘rnatiladi (6.1.40-rasm). undan **Fakultet** “+Fakultet” tanlab sichqoncha bilan tez-tez ikki marotaba bossak “Fakultet” jadvaliga tegishli maydonlari ro‘yxati ochiladi (6.1.41-rasm.).




6.1.40-rasm.



6.1.41-rasm.


3-qadam. Список полей panelidan birinchi maydon nomi “Код”ni ajratamiz va oynani chap tomoniga: Область данных (Ма’lumotlar sohasiga) siljitib joylashtiramiz (6.1.42-rasm.).



6.1.42-rasm.

4-qadam. “Fakultet” nomli jadvalni “Код”, “Yo’nalish”, “Guruh”, “Familiya” va “Ism” maydonlaridan forma tuzamiz (6.1.43-rasm.).

5-qadam. Главная вкладkasini Режим: Режим формы buyrug’ini beramiz. Natijada quyidagi ko’rinishdagi formaga ega bo’lamiz (6.1.44-rasm.).



6.1.43-rasm.

6-qadam. Tuzilgan forma ko‘rinishi (dizayn)nini o‘zgartiramiz. Dastavval **Главная** vkladkasidan **Режим:Конструктор** buyrug‘ini berib tahrirlash holatiga keltiramiz. Kerakli shrift, shrift o‘lchami, shrift rangi, shrift qalinligi, forma kataklari o‘lchamlarini o‘zgartirish kabi formatlash ishlarini amalga oshirib (6.1.45-rasm.), **Главная** vkladkasidan **Режим:Режим формы** buyrug‘i beriladi.

6.1.44-rasm.

6.1.45-rasm.

6.1.46-rasm.

7-qadam. Tuzilgan formaga nom berib kompyuter xotirasiga olamiz. Buning uchun **Файл** vkladkasi **Сохранить** buyrug‘ini beramiz

Сохранение oynasidan “Form1”ni o‘rniga “Fakultet 4 forma”ni yozib, OK tugmasini bosamiz.

8-qadam. Tuzilgan formalarga boshqaruv tugmalarini o‘rnatish. “Fakultet 4 forma” nomli formada amalga oshiramiz.


6.1.7-vazifa. Access 2016 formalariga boshqaruv tugmalarini o‘rnatish.

Vazifa topshriqlari:

1) Access 2016'da “OTM axboroti.accdb” faylini yuklang;
2) “Fakultet 4 forma” nomli formani faollashtiring va unga boshqaruv tugmalarni o‘rnatang.

1-qadam. Ilovani navigatsiyalar panelidan “Fakultet 4 forma” nomli formani faollashtiramiz.

2-qadam. Tuzilgan forma ustida tahrirlash ishlarini amalga oshirish uchun Главная вкладkasidan **Form:Конструктор** buyrug‘ini beramiz.




6.1.47-rasm.

3-qadam. 1) **Конструктор** вкладkasidan **Кнопка** tugmasini  sichqoncha ko‘rsatkichi bilan fallashtirib knopka shaklini ilib olamiz;


2) Област данных sohasida boshqaruv knopkasi o‘rnatiladigan joyni sichqoncha ko‘rsatkichi bilan ajratamiz.

4-qadam. Natijada **Создание кнопок** muloqat oynasi ochiladi. Uni “Категории:” darchasidan “Переходы по записям”ni ajratamiz, “Действия:” darchasidan “Передыщая запись”ni ajratib **Готова**


tugmasini bosamiz. “Образец:” nomli maydonda oʻrnatiladigan knopka-tugmani namunasi keltiriladi (6.1.49-rasm.).




6.1.48-rasm.



6.1.49-rasm.




6.1.50-rasm. Formaga oʻrnatilgan knopka (tugma)ni koʻrinishi.



6.1.51-rasm. Formaga oʻrnatilgan knopka (tugma)larni koʻrinishi.

Yuqorida 4-qadamda keltirilgan tartibda boshqa kerakli knopkalarni oʻrnatamiz (6.1.51-rasm).

5-qadam. Главная вкладkasini **Режим:Режим формы** buyrugʻini beramiz. Natijada knopka oʻrnatilgan formaga ega boʻlamiz (6.1.52-rasm.).



6.1.52-rasm.

6.1.8-vazifa. Access 2016'da hisobotlar tuzish: **Отчет** (Hisobot) usuli.

Vazifa topshiriqlari:


1) Access 2016'da "OTM axboroti.accdb" faylini yuklang;

2) “**Fakultet**” nomli jadvalni faollashtiring va **Отчет** (Hisobot) tuzing.

3) Tuzilgan hisobotni “**Fakultet hisoboti 1**” deb rasmiylashtiring.

1-qadam. Ilovani navigatsiyalar panelidan “**Fakultet**” nomli jadvalni faollashtiramiz.


2-qadam. Tuzilgan forma ustida tahrirlash ishlarini amalga oshirish uchun **Создание** vkladkasidan **Отчет** buyrug‘ini beramiz (6.1.53-rasm).



6.1.53-rasm.


3-qadam. Tuzilgan hisobot shakliga jadval nomi beriladi. Masalan, “**Fakultet**”. Hisobot sarlavhasini tahrirlaymiz. Buning uchun “**Fakultet**” so‘zi yozilgan maydonni sichqoncha bilan faollashtirib, o‘rniga “**Fakultet hisoboti 1**”ni yozamiz. Keyin **Главная** vkladkasidan **Режим:Режим макета** buyrug‘ini beramiz.

4-qadam. **Главная** vkladkasidan **Сохранить** buyrug‘ini berib tuzilgan hisobot shaklini xotiraga olamiz.




6.1.54-rasm.

Access 2016'da hisobot shakllarini tuzish uchun **Создание** vkladkasini **Отчеты** guruhiga mansub “**Конструктор отчетов** (Hisobotlar konstruktory)” va “**Пустой отчет** (Bo'sh hisobot) ” shakllari bilan ham tuzish mumkin. Talabalarga bu usullarni mustaqil o‘rganish tavsiya qilinadi (6.1.56-rasm).



6.1.55-rasm.



6.1.56-rasm.

6.1.9-vazifa. Access 2016'da so'rovlar tuzish: "Конструктор запросов" (So'rovlar konstruktori) usuli.


Microsoft Access ma'lumotlar jadvali – axborotlarni saqlash uchun mo'ljallangan.

So'rov – bu ma'lumotlar bazasidagi ma'lumotlarni tezda ko'rish, qo'shish yoki o'zgartirish imkonini beruvchi harakat. **Access**'da oddiy qidiruvdan tortib, mavjud ma'lumotlar asosida yangi jadvallar yaratishgacha bo'lgan so'rovlarning katta tanlovi mavjud.

So'rovlar ma'lumotlarni qidirish va tuzish vositasidir. Bir yoki bir nechta jadvallarga yuborilgan so'rov, ulardagi ma'lumotlarning kerakli qismini tanlashni va ularni so'rov tomonidan yaratilgan yangi jadvalga o'tkazish vositasidir. Natijada foydalaovchi oldin tuzilgan jadvallar manbasidagi ma'lumotlar bazasini bir qismini oladi.


So'rovlar bir yoki bir nechta jadvaldagi ma'lumotlarni ko'rish, tahlil qilish va o'zgartirish uchun ishlatiladi. Masalan, siz bir yoki bir nechta jadvaldagi ma'lumotlarni ko'rsatish va ularni ma'lum tartibda saralash, yozuvlar guruhida hisob-kitoblarni amalga oshirish va ma'lum shartlarga muvofiq jadvallardan tanlash uchun so'rov (**Запрос**)dan foydalanishingiz mumkin.

Access 2016'da so'rovlar tuzish **Создание** vkladkasini **Запросы** guruhiga mansub bo'lgan **Мастер запросов** (So'rovlar ustasi) va **Конструктор запросов** (So'rovlar konstruktora) buyruqlari bilan amalga oshiriladi.



6.1.57-rasm.

1-qadam. Foydalanuvchi **Access** fayli yuklanadi, masalan, **OTM axboroti.accdb** kabi.




6.1.58-rasm.

Создание vkladkasidan **Конструктор запросов** (So'rovlar konstruktora) buyrug'i beriladi. Natijada ilova ish sohasida **Запрос1**

nomida so‘rov oynasi va **Добавление таблицы** muloqat oynasi **Таблицы** vkladkasi faol bo‘lgan holda ochiladi. Bu oynada so‘rovlar tuzish mumkin bo‘lgan fayllar ro‘yxati keltiriladi. Bu ro‘yxatdan biz **“Talabalar ro‘yxati”**ni ajratib **Дабавить** (Qo‘shish), keyin **Заккрыть** tugmasini bosamiz (6.1.58-rasm.).


Eslatma. **“Talabalar ro‘yxati”** jadvali **“Код”**, **“Yo‘nalish nomi”**, ..., **“Tug‘ilgan joyi”** kabi 8 ta maydondan iborat (6.1.59-rasm.).



Код	Yo'nalish nom	Bosqich	Guruh	Familiya	Ism	Tug'ilgan yil	Tug'ilgan joy
1	Ipakchilik va tutchilik	1	101	Botirov	Ali	2000	Oqdaryo
2	Zooinjeneriya (turlar bo'yicha)	2	102	Sardorova	Guli	1998	Urgut
3	Zooinjeneriya	1	101	Oqilov	Sarvar	2002	erkak

6.1.59-rasm.


2-qadam. Ilovani ish sohasi 6.1.60-rasmda keltirilgan ko‘rinishni oladi. Ish sohasini yuqori qismidagi paneldagi darchada **“Talabalar ro‘yxati”** jadvalidagi maydon nomlari keltiriladi. Pastki paneldagi darchalarda so‘rov parametrlari o‘rnatiladi.



6.1.60-rasm.


3-qadam. Tuziladigan so‘rov uchun tegishi parametrlarni o‘rnatamiz. Bizdan, aytaylik **“Talabalar ro‘yxati”** jadvalini **“Yo‘nalish nomi”**, **“Guruh”**, **“Familiya”** va **“Ism”** maydonlaridan so‘rov jadvalini tuzish talab qilinsin. Buning uchun 1-maydoncha  markerini

sichqoncha bilan faollashtirsak, Jadval nomi va maydon nomlari ro‘yxati ochiladi. Bu ro‘yxatdan “**Yo‘nalishlar nomi**” tanlanadi (6.1.60-rasm.).




6.1.61-rasm.

4-qadam. Pastki panelni “**Поле:**” nomli qatoriga maydon nomlari, “**Имя таблицы**” qatoriga jadval nomi; “**Сортировка**” qatoriga tuziladigan so‘rov jadvali ma’lumotlarini “**o‘sinh (kamayish)**” kabi saralash parametrlari o‘rnatiladi (6.1.62-rasm.).



6.1.62-rasm.

5-qadam. Конструктор vkladkasidan **Выполнить** buyrug‘i beriladi (6.1.63-rasm). Natijada ilova ish maydoniga tuzilgan so‘rov jadvali chiqariladi (6.1.64-rasm.).



6.1.63-rasm.

6-qadam. Tuzilgan so‘rov ob‘yektini xotiraga olamiz. Buning uchun **Файл** vkladkasidan **Сохранить** buyrug‘ini beramiz. Oynaga ochilgan **Сохранение** muloqat oynasini **Имя Запроса:** darchasiga “**Talabalar ro‘yxati: 1-So‘rov**”ni yozib **OK** tugmasini bosamiz (6.1.65-rasm.).

Natijada “**Talabalar ro‘yxati: 1-So‘rov**” nomli so‘rov ob‘yekti navigasiya panelini **Запросы** bo‘limida aks etadi (6.1.66-rasm.).

7-qadam. Tuzilgan so‘rov ob‘yekti (jadval)ni tahrirlab o‘rnatilgan so‘rov parametrlarini o‘zgartirish mumkin. Buning uchun tegishli So‘rov ob‘yekti navigasiyalar panelidan faollashtiriladi va **Главная** vkladkasidan **Режим:Конструктор** buyrug‘i beriladi. Natijada u tahrirlash holatiga keladi (6.1.67-rasm.).

Запрос1				
Yo‘nalish nom ▾	Bosqich ▾	Guruh ▾	Familiya ▾	Ism ▾
Biotexnologiya	2	201	Nodirova	Muslima
Biotexnologiya	3	201	Sharifova	Guzal
Ipakchilik va tutchilik	1	101	Botirov	Ali
O‘simlikshunoslik Agronomiya	4	102	Sulaymanov	Olim
Veterinariya diagnostikasi	1	102	Shodmonov	Temur
Veterinariya farmatsevtikasi	1	104	Artikov	Olim
Veterinariya farmatsevtikasi	2	104	Botirov	Sobir
Veterinariya meditsinasi	1	103	Olimov	Sharof
Veterinariya sanitariya	1	105	Botirova	Sarvinoz
Zooinjeneriya (qorako‘lchilik)	1	101	Oqilov	Sarvar
Zooinjeneriya (turlar bo‘yicha)	2	102	Sardorova	Guli

6.1.64-rasm. **Запрос1** nomli so‘rov ob‘yektdagi ma’lumotlarni ko‘rinishi.

Сохранение
?
X

Имя запроса:

Сохранение
?
X

Имя запроса:

6.1.65-rasm.

Yo'nalish nom	Bosqich	Guruh	Familiya	Ism
Biotexnologiya	2	201	Nodirova	Muslima
Biotexnologiya	3	201	Sharifova	Guzal
Ipakchilik va tutchilik	1	101	Botirov	Ali
O'simlikshunoslik Agronomiya	4	102	Sulaymanov	Olim
Veterinariya diagnostikasi	1	102	Shodmonov	Temur
Veterinariya farmatsevtikasi	1	104	Artikov	Olim

6.1.66-rasm. “Talabalar ro‘yxati: 1-So‘rov” ob‘yekti ma’lumotlarini **Режим таблицы** rejimida ko‘rinishi.

Поле	Имя таблицы	Сортировка	Вывод на экран	Условие отбора
Yo'nalish nomi	Talabalar ro'yxati	по возрастанию	☒	
Bosqich	Talabalar ro'yxati	по возрастанию	☒	
Guruh	Talabalar ro'yxati	по возрастанию	☒	101
Familiya	Talabalar ro'yxati		☒	
Ism	Talabalar ro'yxati		☒	

6.1.67-rasm.

Masalan, bizga so‘rovda faqat 101-guruh bo‘yicha ma’lumotlar saralanishi kerak bo‘lsa “**Guruh**” nomli maydonni “**Условия отбора:** (Tanlash sharti) qatori kesishmasiga **101**ni yozib, **Конструктор** vkladkasidan **Выполнить** buyrug‘i beriladi. Natijada, **So‘rov** ob‘yekti 6.1.68-rasmida keltirilgan ko‘rinishda taqdim qilinadi.

Yo'nalish nom	Bosqich	Guruh	Familiya	Ism
Ipakchilik va tutchilik	1	101	Botirov	Ali
Zootekhnika (qorako'chilik)	1	101	Oqilov	Sarvar
	0	0		


6.1.68-rasm.

8-qadam. Tuzilgan so‘rov ma’lumotlarini chop etish uchun “**Hisobot**” (отчет) tuzish talab etiladi. Buning uchun:

- 1) Navigasiyalar panelini **Запросы** bo‘limidan hisobot tuziladigan ob‘yekt ajratiladi, masalan, “**Talabalar so‘rovi:1-So‘rov**”;
- 2) **Создание** vkladkasidan **Отчет** (Hisobot) buyrug‘i beriladi (6.1.69-rasm).

So‘rov hisobotini **Файл–Сохранить** buyrug‘i bilan xotiraga olamiz va “**Talabalar ro‘yxati:1-So‘rov hisoboti**” deb nomlaymiz.

So'rov hisobotini sarlavhasi “**Talabalar ro'yxati:1-so'rov**” nomida berilmoqda (6.1.70-rasm.). Uni tahrirlash uchun:



6.1.69-rasm.


Все объекты ... Talabalar ro'yxati: 1-So'rov

11 января 2023 г. 21:21:09

Yo'nalish nomi	Bosqich	Guruh	Familiya	Ism
Ipakchilik va tutchilik	1	101	Botirov	Ali
Zooinjeneriya (turlar bo'yicha)	2	102	Sardorova	Guli
Zooinjeneriya (qorako'chilik)	1	101	Oqilov	Sarvar
Veterinariya farmatsevtikasi	2	104	Botirov	Sobir
O'simlikshunoslik Agronomiya (yem-xashak ekinlari)	4	102	Sulaymanov	Olim
Biotexnologiya	3	201	Sharifova	Guzal
Biotexnologiya	2	201	Nodirova	Muslima
Veterinariya farmatsevtikasi	1	104	Artikov	Olim
Veterinariya meditsinasi	1	103	Olimov	Sharof
Veterinariya diagnostikasi	1	102	Shodmonov	Temur
Veterinariya sanitariya ekspertizasi	1	105	Botirova	Sarvinov


6.1.70-rasm.

1) Главная вкладкадан **Режим:Конструктор** buyrug'ini beramiz (6.1.71-rasm.);



6.1.71-rasm.

2) **Формат** вкладкасини **Шрифт** guruhiga mansub buyruqlar bilan tahrirlash ishlarini amalga oshiriladi (6.1.72-rasm.).



6.1.72-rasm. Hisobot jadvalini tahrir holatdagi ko'rinishi.

3) Главная вкладkasidan **Режим:Режим макета** buyrug'ini beramiz. Natijada **“Hisobot”** quyidagi ko'rinishni oladi (6.1.73-rasm.):

Yo'nalish nomi	Bosqich	Guruh	Familiya	Ism
Ipakchilik va tutchilik	1	101	Botirov	Ali
Zooinjeneriya (turlar bo'yicha)	2	102	Sardorova	Guli
Zooinjeneriya (qorako'chilik)	1	101	Oqilov	Sarvar
Veterinariya farmatsevtikasi	2	104	Botirov	Sobir
O'simlikshunoslik Agronomiya (yem-xashak ekinlari)	4	102	Sulaymanov	Olim
Biotexnologiya	3	201	Sharifova	Guzal
Biotexnologiya	2	201	Nodirova	Muslima
Veterinariya farmatsevtikasi	1	104	Artikov	Olim
Veterinariya meditsinasi	1	103	Olimov	Sharof
Veterinariya diagnostikasi	1	102	Shodmonov	Temur
Veterinariya sanitariya ekspertizasi	1	105	Botirova	Sarvinoz

6.1.73-rasm.


4) So'rov **“Hisoboti”**ni chop etish uchun **Файл** vkladkasidan **Печать** buyrug'i beriladi.

9-qadam. Access ob'ektlarini boshqa ilovalarga eksport qilish uchun (6.1.74-rasm), navigatsiyalar panelidan tegishli ob'ekt, masalan, **“Talabalar ro'yxati: 1-so'rov”** ob'yekti faollashtiriladi;

2) Kontekst menyudan **Экспорт-Excel** buyrug'i berilsa, ob'ekt **Excel**'ga eksport qilinadi;

3) Kontekst menyudan **Экспорт- файл Word в формате RTF** buyrug'i berilsa, ob'ekt **Word**ga eksport qilinadi;


4) Kontekst menyudan **Экспорт-PDF или XPS** buyrug'i berilsa, ob'ekt **PDF**ga eksport qilinadi va h.k.



6.1.74-rasm.


6.1.10-vazifa. Access 2016'da so'rovlar tuzish: Мастер запросов (So'rovlar ustasi) usuli.

1-qadam. Создание vkladkasidan Мастер запросов buyrug'i beriladi (6.1.75-rasm.).



6.1.75-rasm.


2-qadam. Новый запрос muloqat oynasidan Простой запрос ajratiladi va OK tugmasi bosiladi.




6.1.76-6.1.77-rasmlar.

3-qadam. Создание простого запроса (Sodda so‘rov tuzish) muloqat oynasini **Таблицы и запросы** (Jadval va so‘rovlar) nomli darchada tuzilgan (mavjud) jadvallarni ro‘yxati keltiriladi. Bu ro‘yxatdan **“Таблица: Talabalar ro‘yxati”**ni tanlaymiz. Natijada **“Доступные поля:”** nomli darchaga jadvalga mansub bo‘lgan maydon **“nom”**lari o‘rnatiladi.

Bu maydondan tuziladigan so‘rov ob‘yektini nomlari (masalan, **“Guruh”**, **“Familiya”**, **“Ism”**, **“Tug‘ilgan yili”**) tanlanib  o‘tkazish strelkasini bosish orqali **Выбранное поля** (Tanlangan maydon) nomli darchaga o‘tkaziladi (6.1.78-rasm.) va **Готова** tugmasi bosiladi.




6.1.78-rasm.



6.1.79-rasm. **“Talabalar ro‘yxati Запрос”** so‘rov ob‘yektini ko‘rinishi.

4-qadam. So‘rov ob‘yektini **“Talabalar ro‘yxati: 2-So‘rov”** nomi bilan xotiraga olamiz. Buning uchun **Главная** vkladkasidan **Сохранить** buyrug‘ini beramiz. **Сохранение** muloqat oynasiga **“Talabalar**

ro'yxati:2-So'rovni yozib **OK** tugmasini olamiz. Natijada so'rov ob'yekti 6.1.80-rasmda keltirilgan ko'rinishni oladi.



Guruh	Familiya	Ism	Tug'ilgan yili
101	Botirov	Ali	2000
102	Sardorova	Guli	1998
101	Oqilov	Sarvar	2002
104	Botirov	Sobir	2001
102	Sulaymanov	Olim	1998
201	Sharifova	Guzal	2000
201	Nodirova	Muslima	1997

6.1.80-rasm.

Mavzu bo'yicha test savollari:

1) ...- ma'lumotlar bazasida axborotlarni tuzish, saqlash, tartiblash, yangilash va qidirish, shuningdek berilganlarni himoyalash va butunligini ta'minlashni boshqaradigan dasturlar majmui

- A) Berilganlar bazasi
- B) Xabarlar bazasi
- C) Amallar
- D) MBBT (Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi)

2) MB nuqtai nazaridan qaysi javobda berilgan tasnif to'g'ri keltirilgan?

A) Malumotlar deyilganda, ma'lum bir shaklda qayd qilingan, qayta ishlash, saqlash va uzatish uchun yaroqli xabar tushuniladi

B) Ma'lumotlar to'plamni ifodalaydi

C) Ma'lumotlar deyilganda, qayta ishlash, saqlash va uzatish uchun yaroqli xabar-ma'lumot - axborot tushuniladi,

D) Ma'lumotlar deyilganda, xabar bu ma'lumotnomadir,

3) Ma'lumotlar bazasi deganda nimani tushunasiz?

A) Komp'yuter xotirasida saqlanadigan, bir-biriga bog'liq bo'lgan, bir predmet sohadagi ma'lumotlarning to'planishidir

B) Axborot jamlash va qayta ishlashning qonunlari va usullarini tushuniladi

C) Biror masalani yechish uchun zarur bo'lgan buyruqlarning tartiblangan ketma-ketligiga aytiladi

D) Ma'lumotlarni markazlashtirilgan tartibda yig'ish

4) MS Access'da ma'lumotlar bazasini tarkibiga qanday ob'ektlar kiradi?

A) Таблица, Запрос, Форма, Отчет, Макрос, Модул

B) Таблица, Запрос, Форма, Отчет, Макрос

C) Таблица, Запрос, Форма, Вид, Формат, Конструктор

D) Таблица, Запрос, Форма, Открыть, Создать, Закреть

5) Microsoft Access'da maydon nomi nechta simvoldan ortmasligi kerak

A) 64 ta

B) 63 ta

C) 65 ta

D) 67 ta

6) Microsoft Access'da Таблица ob'ektida nima ish bajariladi?

A) MBning ma'lumotlarini saqlaydi

B) Ma'lumotlar qayta ishlanadi

C) Yangi ma'lumotlar kiritiladi

D) Makro buyruqlar to'plami

7) Microsoft Access ma'lumotlar bazasi -bu...

A) bitta optik diskda to'plangan ma'lumotlar to'plami

B) dasturlarni ishlashi uchun mo'ljallangan ma'lumotlar

C) ma'lumotlarni tavsiflash, saqlash va qayta ishlashning umumiy tamoyillarini ta'minlovchi muayyan qoidalarga muvofiq tashkil etilgan o'zaro bog'liq ma'lumotlar to'plami

D) aloqa tarmoqlari orqali yuboriladigan ma'lumotlar

8) Microsoft Access 16 ilovasi fayli kengaytmasini aniqlang?

A) *.xls

B) *.doc

C) *.accdb

D) *.dbf

9) Microsoft Access 16 ilovasi bilan ishlash uchun yangi fayli tuzishda,...

A) Ilova yuklangach faylni nomlash talab etiladi.

- B) Ilova faylida ishlab, keyin uni nomlash mumkin.
- C) Chegaralangan vaqt oralig'ida ilova faylini nomlash mumkin.
- D) Ilovani o'zi faylga nom qo'yib saqlaydi

10) Microsoft Access dan qanday berilganlarni MS Word ga eksport qilish mumkin?

- A) Таблицу и Запрос (Jadval va So'rovni)
- B) Таблицу и Форму (Jadval va Shaklni)
- C) Таблицу и Отчет (Jadval va Hisobotni)
- D) Таблицу, Запрос, Форму и Отчет (Jadval, So'rov, Shakl va Hisobotni)

11) Access MBVT fayli qanday kengaytmaga ega?

- A) xls
- B) doc
- C) accdb
- D) dbf

12) Microsoft Access qachon ilova bilan ishlash uchun fayl yaratadi?

- A) Microsoft Access hujjati bilan ishlash boshlanishida
- B) Hujjatni yopishda
- C) Foydalanuvchi tomonidan belgilangan vaqtda
- D) Hujjatni saqlagandan keyin

13) Microsoft Access ma'lumotlar bazasining asosiy ob'ektlari:

A) Таблицы (jadvallar), Формы (formalar), Запросы (so'rovlar), Отчеты (hisobotlar)

- B) формы, таблицы, строки, отчеты
- C) отчеты, таблицы, формы
- D) формы, таблицы, запросы, выборки

14) Access MBVTning asosiy ob'ekti:

- A) Форма (forma)
- B) Выборка (tanlama)
- C) Таблица (jadval)
- D) Отчет (hisobot)

15) Запросы-So'rovlar Access ma'lumotlar bazasida quyidagilar uchun mo'ljallangan:

- A) ma'lumotlarni qidirish va saralash

- B) ma'lumotlarni qo'shish va ko'rish
- C) yozuvlarni qidirish, saralash, qo'shish va o'chirish, yangilash
- D) jadvaldagi ma'lumotlarni tahrirlash uchun

16) Access MBBT dagi Отчет-Hisobot:

- A) ma'lumotlarni saqlash uchun mo'ljallangan
- B) ma'lumotlarni chop etish uchun
- C) ma'lumotlarni kiritish va tahrirlash uchun
- D) ishingizni avtomatlashtirish uchun buyruqlar yaratish uchun

17) Текстовое поле -Matn maydonida nechta belgi bo'lishi mumkin?

- A) 65635
- B) 255
- C) 1024
- D) 512.8

18) Microsoft Access MBBTni Мастер подстановок-Almashtirish ustasi... ishlatiladi.

- A) jadvalda yangi maydon (polya) yaratish uchun
- B) yangi jadvallar yaratish uchun
- C) boshqa jadvallardan yoki ma'lumotlarning belgilangan ro'yxatidan maydon qiymatlarini qo'shish uchun
- D) ifodalarni kiritish yoki chiqarish uchun

19) Katta hajmdagi matnni saqlash uchun Microsoft Access MBBTda qanday ma'lumotlar turi (tipi) ishlatiladi?

- A) Текстовый (Matnli)
- B) OLE
- C) MEMO
- D) Гиперссылка (Giperhavola)

20) Grafik ob'ektlarni saqlash uchun Microsoft Access MBBTda qanday ma'lumotlar turi (tipi) ishlatiladi?

- A) Текстовый (Matnli)
- B) OLE
- C) MEMO
- D) Гиперссылка (Giperhavola)

21) 4784 rubl, \$67 miqdorini kiritish uchun qanday turdagi ma'lumotlarni tanlash kerak?

- A) Числовой (Sonli)
- B) Финансовый (Moliyaviy)
- C) Денежный (Pullik)
- D) Текстовый (matnli)

22) Access MBBTning OLE maydonida quyidagilarni joylashtirish mumkin:

- A) изображение или лист Excel (tavirlar yoki Excel listlari)
- B) большие фрагменты текста
- C) ссылки (havolalar)
- D) логические значения (mantiqiy qiymatlar)

23) Access MBBT jadval konstruktori rejimida:

A) maydonlarni qo'shish va ularni qiymatlari uchun xususiyatlar o'rnatish orqali jadval yaratish mumkin

- B) qiymat almashtirishlarini yaratish
- C) so'rovlar tuzish
- D) hisobotlarni yaratish

24)... Microsoft Access MBBT ob'ekti emas.

- A) So'rov
- B) Makros
- C) Modul
- D) So'rov va modul

25) Access MBBTda Форма (Shakl)... mo'ljallangan.

- A) ma'lumotlar bazasiga ma'lumotlarni kiritishga
- B) jadvalga ma'lumotlarini kiritish va ularni ko'rishga
- C) chop etish uchun hujjatlar yaratishga
- D) tayyor ma'lumotlar bazasini o'zgartirishlarga

26) Jadvalga joylashtirilgan yozuvlarni qidirish va tanlash uchun ishlatiladigan sharti... bajariladi.

- A) filtr bilan
- B) so'rov bilan
- C) forma (shakl) bilan
- D) qidiruv sharti bilan

27) Access'da jadval tuzilishi uchta ustun (kalonka) yordamida aniqlanadi. Qo'shimcha ustunni ko'rsating.

- A) Имя поля (Maydon nomi)

B) Тип данных (Ma'lumotlar tipi)

C) Описания (Ifodalanishi)

28) MBVTda ustun... deb ataladi.

A) yozuv

B) maydon (поля)

C) qiymat

D) ustun

29) Access MBVTda ... maydon tipi bo'lishi mumkin emas.

A) moliyaviy (финансовый)

B) hisoblagich (счетчик)

C) mantiqiy (логический)

D) hisoblanadigan (вычисляемый)

30) Access ma'lumotlar bazasida maydonlariga quyidagi tiplardagi yozuvlarga ruxsat beriladi:

A) гиперссылка, телефонный, логический (mantiqiy)

B) вложение (o'rnatilgan), подстановка (almashtirish), текст (matn)

C) число (son), изображение (tasvir), гиперссылка (giperhavola)

D) счетчик (hisoblagich), денежная единица (pul birligi), мастер подстановок (qo'yish ustasi)

31) Access MBVTdagi forma-shakllarning asosiy turlari:

A) jadvalli, oddiy va lentali

B) odatiy (обычная), lentali yoki jadvalli

C) jadvalli, chiziqli, odatiy (обычная)

D) jadvallar, so'rovlar va shakllar

32) Access MBVTda jadval maydonlarining asosiy xususiyatlariga... lar mansub bo'ladi.

A) имя (nom), тип (tur), размер (o'lcham), формат, подпись (imzo), значение по умолчанию (qiymatga qo'yiladigan shartga ko'ra), условие на значение (qiymatga qo'yilgan shartga ko'ra)

B) имя, тип, длина (uzunlik), format, Заголовок (sarlavha)

C) имя, тип, заголовок, условие на значение и значение по умолчанию.

D) формат, размер, тип, имя, подпись.

33) maydon uchun Jadval ustuni sarlavhasi quyidagilarni belgilaydi:

- A) maydon nomi yoki imzo (имя поля или подпись)
- B) imzo (подпись)
- C) maydon nomi (название поле)
- D) maydon sarlavhasi (Заголовок поле)

Nazorat savollari:

- 1) Ma'lumotlar bazasida ma'lumot deganda nima tushuniladi?
- 2) Ma'lumotlar bazasi tushunchasini tasniflang
- 3) Ma'lumotlar bazasiga misollar keltiring
- 4) Ob'ekt tushunchasini tasniflang.
- 5) Axborot tizimi nima?
- 6) HEMIS platformasida sizga oid qanday ma'lumotlar saqlanadi?
- 7) MBsiga misollar keltiring.
- 8) Ma'lumotlar bazasi qanday turlarga ajratiladi?
- 9) Ierarxik ma'lumotlar bazasi tushunchasini tasniflang
- 10) Tarmoqli ma'lumotlar bazasi tushunchasini tasniflang
- 11) Relyatsion (munosabatli, jadvalli) ma'lumotlar bazasi tushunchasini tasniflang.
- 12) Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT) deganda nimani tushunasiz?
- 13) MBBTni tuzishni dasturiy vositalari nomini ayting.
- 14) Access qanday versiyalarini bilasiz?
- 15) Microsoft Access'da qanday ob'ektlar qo'llaniladi?
- 16) Microsoft Access interfeysini tasniflang.
- 17) Microsoft Access faylining kengaytmasi nechta harfdan iborat bo'ladi?

7-amaliy mashg'ulot: Sohaga oid korrelyasion-regrission masalalar yechish

Korrelyatsion tahlil. Korrelyatsiya koeffitsienti

Cohaga doir korrelyatsiya va regressiya masalalari

Korrelyatsion tahlil. Korrelyatsiya koeffitsienti

Korrelyatsion tahlil – bu bir ko'rsatkichning boshqa ko'rsatkichga bog'liqlik darajasini aniqlash uchun ishlatiladigan ommalashgan statistik tadqiqot usuli¹.

Korrelyatsion tahlilning mohiyati. Korrelyatsiya tahlilining maqsadi turli omillar o'rtasidagi bog'liqlik mavjudligini aniqlashdir. Ya'ni, bir ko'rsatkichning kamayishi yoki o'sishi boshqasining o'zgarishiga ta'sir qiladimi yoki yo'qligi aniqlanadi.

Qaralayotgan omillar orasida bog'liqlik o'rnatilganligini aniqlash uchun, korrelyatsiya koeffitsienti aniqlanadi. Korrelyatsiya koeffitsientini aniqlash statistik tadqiqotning yagona usuli hisoblanadi. Korrelyatsiya koeffitsienti qiymatlari -1 dan +1 gacha bo'lgan oraliqda bo'ladi.

Agar korrelyatsiya koeffitsientini qiymati:

- musbat (ijobiy) bo'lsa, bitta ko'rsatkichning oshishi ikkinchisining o'sishiga olib keladi;
- manfiy (salbiy) bo'lsa, bitta ko'rsatkichning oshishi ikkinchisining pasayishiga olib keladi;
- qanchalik katta bo'lsa, bitta omilning o'zgarishi ikkinchisining o'zgarishida yanada sezilarli bo'ladi.
- 0 ga teng bo'lsa, omillar orasidagi bog'lanishlar umuman yo'q deb qaraladi:

Korrelyatsiya koeffitsientini hisoblashni aniq sohaga doir misol yordamida ko'rib chiqamiz.

Demak, ishlab chiqarish jarayonlarini tahlil qilishda bir qiymatni o'zgartirish boshqasining o'rtacha qiymatining o'zgarishiga olib

¹ <https://lumpics.ru/correlation-analysis-in-excel/#relatedpost> Корреляционный анализ в Excel: 2 рабочих варианта

keladigan bog‘lanishlarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Mana shunday bog‘lanishlarga korrelyatsion bog‘lanish deyiladi. Bog‘lanishlar o‘z mohiyatiga ko‘ra sodda va murakkab bo‘lishi mumkin². Korrelyatsion tahlil hodisalar o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlaydigan usullardan biri hisoblanadi.

Korrelyatsiya quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- ijobiy – bir ko‘rsatkich o‘sganda, ikkinchisi ham o‘sadi;
- manfiy – bir ko‘rsatkich o‘sganda, ikkinchisi kamayadi;
- neytral – o‘zgarishlar bir-biri bilan bog‘liq emas.

Korrelyatsiya koeffitsienti quyidagi $[-1;1]$ yoki $-1 \leq r \leq 1$ oralig‘da bo‘ladi.

- $r = 0$ – omillar o‘rtasida bog‘liqlik yo‘q;
- $r = 0,01- 0,3$ – omillar o‘rtasida bog‘liqlik zaif;
- $r = 0,31- 0,7$ – omillar o‘rtasida bog‘liqlik o‘rtacha;
- $r = 0,71- 0,99$ – omillar o‘rtasida bog‘liqlik kuchli;
- $r = 1$ – omillar o‘rtasida bog‘liqlik yuqori.

Sohaga doir korrelyatsiya va regressiya masalalari

7.1.1-vazifa. 7.1.1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra chorva mollarini mahsuldorligini (Y) ularni oziqlantirish (X) darajasiga bog‘liqlik darajasi korrelyatsiya koeffitsientini aniqlang va olingan natijani qisqacha tahlil qiling.

7.1.1-jadval

Sog‘in sigirlarni yillik oziqlantirish darajasi va o‘rtacha sut olinishi bo‘yicha ma’lumotlar

Oylar	Sigirlarni o‘rtacha sut berish hajmi, s	Oziqlantirish darajasi, s
	Y	X
1	19,5	26,1
2	26,0	28,4
3	25,3	28,8
4	26	29
5	27,4	30,5
6	27,3	31

² <https://studfile.net/preview/16404678/page: 17/> 10.3.Прогнозлаштиришда эксперт баҳолаш усуллари.

7	28	32
8	30	35
9	30,5	36
10	32	38,2


Endi berilgan jadval ma'lumotlari asosida "Sigirlarni o'rtacha sut berish hajmi, s"ni "Oziqlantirish darajasi, s"ga bog'liqligini aniqlovchi korrelyatsiya koeffitsientini hisoblashni qarab chiqamiz.

1-usul: **Microsoft Excel**'ni **Мастер функций** (Funksiya ustasi) yordamida korrelyatsiyani aniqlash.

Ko'rsatmalar:

1-qadam. **Microsoft Excel**'ni yuklaymiz va uni tegishli nom bilan kompyuter xotirasida rasmiylashtiramiz;


2-qadam. 7.1.1-jadval ma'lumotlarini **Лист1**'ga kiritamiz. Hisoblash natijasi yoziladigan katakni tanlaymiz, masalan, **E11**ni (7.1.1-rasm.);




E11					
Книга1 * x					
	A	B	C	D	E
	Oylar	Sigirlarni o'rtacha sut berish hajmi, s	Oziqlantirish darajasi, s		
1	№	Y	X		
2	1	19,5	26,1		
3	2	26	28,4		
4	3	25,3	28,8		
5	4	26	29		
6	5	27,4	30,5		
7	6	27,3	31		
8	7	28	32		
9	8	30	35		
10	9	30,5	36		
11	10	32	38,2		
12					
13					

7.1.1-rasm.

3-qadam. Microsoft Excel'ni formula satrini chap tomonida joylashgan Вставить функцию (Funksiya qo'shish) buyrug'ini beramiz (7.1.1-rasm.). Oynaga Вставка функции (Funksiya qo'shish) dialog oynasi ochiladi (7.1.2-rasm.). Bu oynani Выберите функцию (Funksiyani tanlang) nomli darchadagi funktsiyalar ro'yxatidan "КОРРЕЛ"ni tanlab ОК tugmasini bosamiz;



7.1.2-rasm.



7.1.3-rasm.

Аргументы функции

КОРРЕЛ

Массив1 B3:B12 = {19,5;26;25,3;26;27,4;27,3;28;30;30,5;32}

Массив2 C3:C12 = {26,1;28,4;28,8;29;30,5;31;32;35;36;38,2}

= 0,926336814

Возвращает коэффициент корреляции между двумя множествами данных.

Массив2 второй диапазон значений. Значениями могут быть числа, имена, массивы или ссылки с именами.

Значение: 0,926336814

[Справка по этой функции](#)

OK Отмена

7.1.4-rasm.

	A	B	C	D	E	F
	Oylar	Sigirlarni o'rtacha sut berish hajmi, s	Oziqlantirish darajasi, s			
1						
2	№	Y	X			
3	1	19,5	26,1			
4	2	26	28,4			
5	3	25,3	28,8			
6	4	26	29			
7	5	27,4	30,5			
8	6	27,3	31			
9	7	28	32			
10	8	30	35			
11	9	30,5	36			
12	10	32	38,2			
13						

7.1.5-rasm.

4-qadam. Аргументы функции (Funksiya argumentlari) dialog oynasini **Массив1** masivini faollashtiramiz (7.1.3-rasm.) va unga **B3:B12** diapazonga mansub funktsiya argumentlarini kiritamiz (7.1.4-rasm.). Buning uchun, **Excelni** «Sigirlarni o'rtacha sut berish hajmi, s»ga tegishli **B3:B12** diapazondagi sonli kattaliklarni sichqoncha ko'rsatkichi bilan tanlaymiz (ajratamiz). Keyin shu jarayonni **Массив2** uchun «Oziqlantirish darajasi, s»ga mansub **C3:C12** diapazondagi sonlar uchun amalga oshirib **OK** tugmasi bosiladi;

Natijada **Microsoft Excel** oynasi 7.1.5-rasmda keltirilgan ko‘rinishni oladi. Jadvalni E11 (**=КОПЕЛ (B3:B12; C3:C12)**) katagida 0,926337≈0,93 soni korrelyatsiya koeffitsientini ifodalaydi.


Demak, bajarilgan korrelyatsion tahlil natijasi chorvachilik fermer xo‘jaligida “Sigirlarni o‘rtacha sut berish hajmi, s” ularni “Oziqlantirish darajasi, s”ga yuqori daraada bog‘lik ekan deb xulosa qilishga asos bo‘ladi.

2-usul: **Microsoft Excelni Пакет анализа** (Tahlil paketi) yordamida korrelyatsiyani hisoblash.

Bajarish usuli.


Анализ данных (Berilganlar tahlili) sozlamasini o‘rnatish quyidagi qadamlarda o‘rnatiladi:

1-qadam. **Файл** menyusidan—**Параметры** faollashtiriladi;




7.1.7-rasm.

2-qadam. **Параметры Excel** oynasidan **Настройки** tanlanadi va **Параметры Excel** oynasidan **Перейти** tugmasi bosiladi (7.1.7-rasm.). Natijada **Excel** oynasini lenta satrini **Данные** vkladkasiga **Анализ данных** buyrug‘i o‘rnatiladi.



7.1.8-rasm.

3-qadam. Данные vkladkasidan Анализ данных buyrug'i beriladi. Надстройки dialog oynasidan Пакет анализа (Tahlil paketi) ajratiladi va "bayroqcha" o'rnatiladi va OK tugmasi bosiladi (7.1.9-rasm.).



7.1.9-rasm.


7.1.2-vazifa.

7.1.1-jadval ma'lumotlari asosida chorva mollarini mahsuldorligini (Y) ularni oziqlantirish (X) darajasiga bog'liqlik darajasini korrelyatsiya koeffitsienti Данные vkladkasini Анализ данных buyrug'ini qo'llab aniqlang.

Ko'rsatmalar:

1-qadam. Microsoft Excelni yuklaymiz va uni tegishli nom bilan kompyuter xotirasida rasmiylashtiramiz;

2-qadam. 7.1.1-jadval ma'lumotlarini Лист1ga kiritamiz. Natijada u 7.1.5-rasmda keltirilgan ko'rinishni oladi;



7.1.10-rasm.

3-qadam. Korellyatsiya koeffitsientini hisoblash uchun **Excelni Анализ данных** oynasini **Инструменты анализа** (Tahlil vositalari) darchasida keltirilgan ro'yxatdan **Корреляция**ni belgilab **OK** tugmasini bosamiz (7.1.10-rasm.). Natijada korrelyatsiyani tahlil paketidan korellyatsiya vositasi elektron jadvalga o'rnatiladi;

	A	B	C	D	E	F	G	H	I	J
	Oylar	Sigirlarni o'rtacha sut berish hajmi, s	Oziqlantirish darajasi, s							
1	№	Y	X							
2	1	19,5	26,1							
3	2	26	28,4							
4	3	25,3	28,8							
5	4	26	29							
6	5	27,4	30,5							
7	6	27,3	31							
8	7	28	32							
9	8	30	35							
10	9	30,5	36							
11	10	32	38,2							

7.1.11-rasm.

4-qadam. Ochilgan **Корреляция** dialog oynasini **Входной интервал** (Kirish intervali) darchasiga boshlang'ich ma'lumotlarni kiritamiz. Buning uchun **Входной интервал** maydoni sichqoncha ko'rsatkichi bilan faollashtirib, B3:C12 dipazoni ajratiladi. Natijada **Корреляция** dialog oynasi 7.1.12-rasmda keltirilgan ko'rinishni oladi. Oynadan **OK** tugmasi bosilsa, korrelyatsiya koeffitsientini hisoblash amalga oshiriladi.

Корреляция

?

×

Входные данные

Входной интервал:

Группирование:

☒ по столбцам
 ☐ по строкам

☐ Метки в первой строке

Параметры вывода

☐ Выходной интервал:

☒ Новый рабочий лист:

☐ Новая рабочая книга

OK

Отмена

Справка

7.1.12-rasm.

Hisoblash natijasi **Microsoft Excel**'ni yangi **listida** 7.1.13-rasmda keltirilgani kabi ko'rsatiladi.

	A	B	C
1		Столбец 1	Столбец 2
2	Столбец 1	1	
3	Столбец 2	0,92633681	1

7.1.13-rasm.

Demak, korrelyatsiya koeffitsienti 0,93 ga teng ekan.

Regression tahlil – bu bog‘liq o‘zgaruvchi va bir yoki bir nechta bog‘liqmas o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi munosabatni o‘rganadigan statistik usul. Bu bog‘liqmas o‘zgaruvchilarning qiymatlari asosida bog‘liqmas o‘zgaruvchining qiymatini bashorat qilish uchun ishlatiladi.

Regression tahlil statistik tadqiqotning eng ommalashgan usullaridan biridir. Undan bog‘liqmas o‘zgaruvchilarning bog‘liq o‘zgaruvchiga ta’sir darajasini aniqlash uchun foydalanish mumkin. **Microsoft Excel**’da ushbu turdagi tahlillarni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan vositalar mavjud.

- Regressiya – bu bog‘liq o‘zgaruvchini bir yoki bir nechta bog‘liqmas o‘zgaruvchilar bilan bog‘lanishini aniqlaydigan statistik usul.
- Regressiya modeli bog‘liq o‘zgaruvchida kuzatilgan o‘zgarishlar bir yoki bir nechta bog‘liqmas o‘zgaruvchilardagi o‘zgarishlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatishi mumkin.

Ekonometrikada regression tahlilining quyidagi turlari o‘rganiladi:

- parabolik regressiya: $Y = a + bx + cx^2$;
- darajali regressiya: $Y = ax^b$;
- logarifmik regressiya: $Y = \ln(x) + a$;
- eksponensial regressiya: $Y = a \cdot \exp(bx)$;
- ko‘rsatkichli regressiya: $Y = ab^x$;
- giperbolik regressiya: $Y = b/x + a$;
- chiziqli regressiya: $Y = a + bx$.
- Ko‘p omilli chiziqli bog‘langan regressiya tenglamasini umumiy ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi:

- $Y = a_0 + a_1x_1 + a_2x_2 + a_3x_3 + \dots + a_nx_n$ [1] – ko‘p omilli bog‘lanish;
- Bu yerda: Y-ishlab chiqarish natijasi;

• $x_1, x_2, x_3, \dots, x_n$ - regressiya koeffitsiyentlari, $a_0, a_1, a_2, \dots, a_n$ - ishlab chiqarish omillari.

• $Y = a_0 + a_1x_1$ [2] – bir omilli bog‘lanish;

• $Y = a_0 + a_1x_1 + a_2x_2$ [3] – ikki omilli bog‘lanish;

• $Y = a_0 + a_1x_1 + a_2x_2 + a_3x_3$ [4] – uch omilli bog‘lanish.

7.1.2-vazifa. Microsoft Excel'da 7.1.1-jadval ma'lumotlari asosida chorva mollarini mahsuldorligini (Y) ularni oziqlantirish darajasiga (X) bog‘liqligi regressiya tenglamasini tuzing va tahlil qiling.

Bajarish usuli:

Chorva mollarining mahsuldorligini (Y) ularni oziqlantirish (x_1) darajasiga bog‘liqligini quyidagi chiziqli funktsiya ko‘rinishda ifodalaymiz:


$$Y = a_0 + a_1x_1.$$

Bu bir omilli bog‘lanishni chiziqli ifodalanishi deyiladi.

Bu yerda, Y-chorva mollaridan olinadigan o‘rtacha yillik sut miqdori, s;

x_1 - o‘rtacha yillik oziqlantirish darajasi s, oziqa birligida;

a_0 -hisobga olinmagan omillarni fodalovchi ozod had.



7.1.14-rasm.

a_1 – regressiya koeffitsiyenti. Regressiya koeffitsiyenti natijaviy ko‘rsatkichga qanday ta’sir qilishini aniqlaydi. Ishlab chiqarish funktsiyalarini yechish deganda, uning a_i parametrlari qiymatlarini aniqlash tushuniladi.

	A	B	C	D	E	F	G	H
	Oylar	Sigirlarni o'rtacha sut berish hajmi, s	Oziqlantirish darajasi, s	Регрессия				
1				Входные данные				
2	№	Y	X	Входной интервал Y:				
3	1	19,5	26,1	Входной интервал X:				
4	2	26	28,4	☐ Метки ☐ Константа - ноль				
5	3	25,3	28,8	☐ Уровень надежности: 95 %				
6	4	26	29	Параметры вывода				
7	5	27,4	30,5	☐ Выходной интервал:				
8	6	27,3	31	☒ Новый рабочий дист:				
9	7	28	32	☐ Новая рабочая книга				
10	8	30	35	Остатки				
11	9	30,5	36	☐ Остатки ☐ График остатков				
12	10	32	38,2	☐ Стандартизованные остатки ☐ График подбора				

7.1.15-rasm.

1) Данные vkladkasidan **Анализ данных** buyrug'ini beramiz;
 2) Oynaga ochilgan **Анализ данных** dialog oynasini **Инструменты анализа** (Tahlil vositalari) darchasidagi vositalar ro'yxatidan **Регрессия**ni tanlab **ОК** tugmasini bosamiz (7.1.14-rasm.).

3) **Microsoft Excel**ni faol oynasida **Регрессия** dialog oynasi ochiladi (7.1.15-rasm.). Bu oynani **Входной интервал (Y)** – kirish oralig'i darchasiga “Sigirlarni o'rtacha sut berish hajmi,s” nomli ustunni B3:B12 diapazonidagi sonli kattaliklar kiritiladi. Buning uchun **Входной интервал (Y)**, darchasi faollashtiriladi va B3:B12 diapazondagi sonli kattaliklar sichqoncha bilan ajratiladi. Shu tarzda **Входной интервал (X)** – kirish oralig'i darchasiga “Oziqlantirish darajasi,s” nomli ustunni C3:C12 diapazonidagi sonli kattaliklar kiritiladi. Natijada **Регрессия** dialog oynasi 7.1.16-rasm keltirilgan ko'rinishni oladi;

	A	B	C	D	E	F	G	H
	Oylar	Sigirlarni o'rtacha sut berish hajmi, s	Oziqlantirish darajasi, s	Регрессия				
1				Входные данные				
2	№	Y	X	Входной интервал Y: \$B\$3:\$B\$12				
3	1	19,5	26,1	Входной интервал X: \$C\$3:\$C\$12				
4	2	26	28,4	☐ Метки ☐ Константа - ноль				
5	3	25,3	28,8	☐ Уровень надежности: 95 %				
6	4	26	29	Параметры вывода				
7	5	27,4	30,5	☐ Выходной интервал:				
8	6	27,3	31	☒ Новый рабочий дист:				
9	7	28	32	☐ Новая рабочая книга				
10	8	30	35	Остатки				
11	9	30,5	36	☐ Остатки ☐ График остатков				
12	10	32	38,2	☐ Стандартизованные остатки ☐ График подбора				
13				Нормальная вероятность				
				☐ График нормальной вероятности				

7.1.16-rasm.

4) OK tugmasi bosilsa **Microsoft Excel**ni yangi **Лист**ida hisoblash natijalari ko‘rsatiladi (7.1.17-rasm.).

	A	B	C	D	E	F	G	H	I
1	ВЫВОД ИТОГОВ								
2									
3	Регрессионная статистика								
4	Множественный R	0,926336814							
5	R-квадрат	0,858099893							
6	Нормированный R-квадрат	0,84036238							
7	Стандартная ошибка	1,385607607							
8	Наблюдения	10							
9									
10	Дисперсионный анализ								
11		df	SS	MS	F	Значимость F			
12	Регрессия	1	92,88073247	92,880732	48,37769	0,000117778			
13	Остаток	8	15,35926753	1,9199084					
14	Итого	9	108,24						
15									
16		Коэффициенты	Стандартная ошибка	Статистика t	P-Значение	Нижние 95%	Верхние 95%	Нижние 95,0%	Верхние 95,0%
17	Y-пересечение	0,696303354	3,835626429	0,1815358	0,860462	-8,148667053	9,54127376	-8,14866705	9,54127376
18	Переменная X 1	0,841387195	0,120968791	6,9554071	0,000118	0,562432662	1,12034173	0,562432662	1,120341728
19									

7.1.17-rasm.

Olingan natijalarni tahlili (7.1.17-rasm.).

1) Aniqlangan regressiya modelini asosiy ko‘rsatkichlaridan biri **R-квадрат** hisoblanadi. U modelni sifati belgilaydi. Yuqorida qayd etilganidek regressiya koeffitsienti r 0,71–0,99 oraliqda bo‘lsa omillar o‘rtasida bog‘liqlik kuchli hisoblanadi. Bizning masalamizda bu koeffsient **R-квадрат** = 0,858099893 ga, yoki 85,8%ga teng. Demak, “Sigirlarni o‘rtacha sut berish hajmi, s ” bilan, ularni “Oziqlantirish darajasi, s ” omili o‘rtasida kuchli bog‘lanish mavjud ekan;

2) Yana bir muhim natija “**Y-пересечение** (Y – chorraha)” satri va “**Коэффициенты** (Koeffitsientlar)” ustuni kesishmasida joylashgan 0,696303354 qiymat (koeffitsient) “Oziqlantirish darajasi, s ”dan boshqa omillar nol bo‘lganda **Y**ning qiymatini qanchaga teng bo‘lishini bildiradi;

3) “**Переменная X1** ($X1$ – o‘zgaruvchi)” satri va “**Коэффициенты** (Koeffitsientlar)” ustuni kesishmasida joylashgan 0,841387195 koeffitsient **Y** (Sigirlarni o‘rtacha sut berish hajmi, D)ni **X1** (Oziqlantirish darajasi, D) ga bog‘liqlik darajasini belgilaydi;

4) Chorva mollarining mahsuldorligini (Y) ularni oziqlantirish (x_1) darajasiga bog‘liqligini ifodalovchi chiziqli regressiya $Y=a_0+a_1x_1$ tenglamasini tuzamiz:

5) $a_0=0,696303354 = 0,7$ hisobga olinmagan omillarni ifodalovchi ozod had;

6) $a_1 = 0,841387195 \approx 0,87$ regressiya koeffitsiyenti;

7) Demak, chorva mollarining mahsuldorligini ularni oziqlantirish darajasiga bog'liqligini ifodalovchi regressiya tenglamasi

$$Y = a_0 + a_1 x_1 = 0,696 + 0,87x \text{ dan iborat bo'ladi.}$$

8) Iqtisodiy mazmuni. Agar sog'in sigirlarga beriladigan oziqa birligidagi yem-xashaklar miqdorini 1 s oshirilsa, ularning sut berish hajmi o'rtacha 0,85 s. ga oshishini bashorat qilishga asos bo'ladi.

Quyida keltirilayotgan sohaga doir vazifalarda:

1) **Microsoft Excel** elektron jadvalini **Мастер функций** (Funktsiya ustasi) yordamida korrelyatsiya koeffitsientini aniqlang;

2) **Microsoft Excel** elektron jadvalini **Пакет анализа** (Tahlil paketi) - **Анализ данных** (Berilganlar tahlili)ni **Корреляцiя** vositasi bilan yordamida korrelyatsiya koeffitsientini aniqlang;

3) **Microsoft Excel** elektron jadvalini **Пакет анализа** (Tahlil paketi) - **Анализ данных** (Berilganlar tahlili)ni **Регрессия** vositasi bilan yordamida korrelyatsiya koeffitsientini aniqlang;

4) **Microsoft Excel** elektron jadvalini **Пакет анализа** (Tahlil paketi) - **Анализ данных** (Berilganlar tahlili)ni **Гистограмма** vositasi bilan yordamida gistogramma tuzing;

5) Olingan natijalarni tahlil eting.

7.1.3-vazifa. 7.1.2-jadval ma'lumotlari asosida chorvachilik fermer xo'jaligida sog'in sigirlarni mahsuldorligini (Y) ularni laktatsiya (yilning sut berish) (x) davriga bog'liqligini ifodalovchi korrelyatsiya va regressiya koeffitsientlari aniqlang, ishlab chiqarish funksiyasini tuzing. Olingan natijalarni tahlil qiling.

Ko'rsatma. Masalani bir omilli ishlab chiqarish funksiyasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi: $Y = a_0 + a_1 x_1$.

7.1.2-jadval

Sog'in sigirlar laktatsiya (sut berish - davri) bo'yicha va mahsuldorligi bo'yicha ma'lumotlar

Kuzatishlar tartib nomeri	Sog'in sigirlar mahsuldorligi, s	Sigirlarni laktatsiya davri, oylar
№	Y	x_1
1	28	1
2	30	2

3	33	3
4	35	4
5	36	5
6	38	6
7	35	7
8	33	8
9	30	9
10	28	10
11	24	11
12	20	12

7.1.4-vazifa. 7.1.3-jadvalda 13 ta fermer xo‘jaligi bo‘yicha bug‘doy maydonlarni o‘g‘itlash va ularning hosildorligi bo‘yicha ma‘lumotlari keltirilgan. Bug‘doy hosildorligini (Y) ularni o‘g‘itlash (x) darajasiga bog‘liqligini aniqlovchi korrelyatsiya, regressiya koeffitsientlarini va ishlab chiqarish funksiyasini tuzing. Olingan natijalarni tahlil qiling.

7.1.3-jadval

Arpa maydonlarini o‘g‘itlash va olinadigan o‘rtacha hosildorlik bo‘yicha ko‘rsatkichlar

Fermer xo‘jaliklari nomi	Bug‘doy hosildorligi, s/ga	O‘g‘itlash miqdori, s/ga
№	Y	x_1
1. Mustaqillik	48	3,5
2. Nasldor qoramollar	49,7	4
3. Botir Hoji chorvasi	50,8	4,2
4. Botir chorvalari	52,5	4,5
5. Pastdarg‘om-ILM	52	4,8
6. Zarbdor	54,8	5,0
7. Bo‘rdoqichilik	55,4	5,5
8. Ko‘tarma chorvasi	61,3	5,8
9. Ravalliq	64	6,2
10. Boyto‘ra chorvasi	65	6,5
11. Samandar chorvachiligi	59	5,2
12. Oltisoy chorvasi	61	4,8
13. Amirsoy qoramollari	62	4,7

Korrelyatsion tahlil ikki yoki undan ortiq o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi munosabatni o‘rganish usullaridan biridir. Ko‘p o‘lchovli modellar

turli xil o'zgaruvchilar uchun tuzilgan korrelyatsiya yoki tegishli kovariatsion jadvallarini tahlil qilishga asoslangan.

Regressiya – bitta korrelyaslanadigan belgi orqali, boshqa omilning o'rtacha kattaligini aniqlovchi funksiyadir. Sof funksional bog'liqlikdan farqli o'laroq $Y=f(x)$ regressiya funksiyasida x bog'liqmas o'zgaruvchining har bir qiymatiga Y bog'liq o'zgaruvchining aniq bitta qiymati to'g'ri keladi. Demak, korrelyatsion tahlil ikki yoki undan ortiq o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatni o'rganish usullaridan biridir. Ko'p o'lchovli modellar turli xil o'zgaruvchilar uchun tuzilgan korrelyatsiya yoki tegishli kovariatsion jadvallarini tahlil qilishga asoslangan.

7.1.5-vazifa. Otlarning trik vaznini, ularning ko'krak qafasi kengligiga bog'liqligini ifodalovchi regressiya tenglamasini tuzing. Olingan natijalarni tahlil qiling.

7.1.4-jadval

Kuzatuvlar soni	Tirik vazni, kg	Otlarning ko'krak qafasi kengligi, sm
№	Y	X
1	420	172
2	425	173
3	425	174
4	410	170
5	400	169
6	390	168
7	400	170
8	400	170
9	410	170
10	430	175
11	415	173
12	410	171
13	445	177
14	425	174
15	450	178
16	410	175
17	445	177
18	440	177
19	440	176

Ko'rsatma. $Y=a_0+a_1x_1$ regressiya tenglamasi. Bu yerda, a_0 – hisobga olinmagan omillar, a_1 – otlarning ko'krak qafasi kengligini ularning tirik vazniga (kg) bog'liqligini aniqlovchi regressiya koeffitsienti.

7.1.5-jadvalda yilning may – iyul oylari uchun yog'ingarchilik miqdori (X ,mm) va kartoshka maydonlarini NPK bazaviy mikroelementlar kompleksi bilan o'g'itlangan kartoshka hosildorligi (Y , s/ga) ko'rsatkichlari keltirilgan. Bu yerda, NPK “bazaviy mikroelementlar kompleksi” bo'lib, N - azot, P - fosfor, K – kaliy - o'g'itlarning qisqartma nomi. NPK kompleksi (birligi) qishloq xo'jalik ekin maydonlarini o'g'itlashda qo'llaniladi.

7.1.5-jadval

7.1.6-vazifa		7.1.7-vazifa		7.1.8-vazifa	
“Ilm” fermer xo'jaligi		“Ahmad bobo” fermer xo'jaligi		“Yoshlar” fermer xo'jaligi	
Kartoshka hosildorligi, s/ga	Yog'ingarchilik miqdori, mm	Kartoshka hosildorligi, s/ga	Yog'ingarchilik miqdori, mm	Kartoshka hosildorligi, s/ga	Yog'ingarchilik miqdori, mm
Y	X_1	Y	X_1	Y	X_1
150	235	46	113	45	121
136	204	125	212	84	142
42	120	77	14	83	138
216	238	201	247	143	221
37	96	112	176	136	198
95	145	112	188	100	168
82	140	37	88	95	140
48	119	42	96	103	178
42	115	39	83	31	78
96	156	54	113	36	85

7.1.6-7.1.8-vazifalarda yilning may-iyul oylaridagi yog'ingarchilik miqdorini NPK bazaviy mikroelementlar kompleksi bilan o'g'itlangan

kartoshka maydonining hosildorligiga (Y , s/ga) bog‘liqligini ifodalovchi chiziqli regressiya tenglamasini tuzing va olingan natijalarni tahlil qiling³.

7.1.6-jadvalda tuman fermer xo‘jaliklari bo‘yicha pishib yetilgan bug‘doy boshhoqlari va boshhoqdagi bug‘doy donlari soni keltirilgan. Fermer xo‘jaliklari bo‘yicha bug‘doy boshhoqlarini boshhoqdagi donlar soniga bog‘liqligini ifodalovchi regressiya tenglamasini tuzing. Olingan natijalarni tahlil qiling.

7.1.6-jadval

7.1.9-vazifa		7.1.10-vazifa		7.1.11-vazifa	
“Ilm” fermer xo‘jaligi		“Ahmad bobo” fermer xo‘jaligi		“Yoshlar” fermer xo‘jaligi	
Bug‘doy boshhoqlari soni	Boshhoqdagi donlar soni	Bug‘doy boshhoqlari soni	Boshhoqdagi donlar soni	Bug‘doy boshhoqlari soni	Boshhoqdagi donlar soni
Y	X	Y	X	Y	X
38	18	28	19	30	13
29	12	39	15	22	11
32	13	25	13	28	9
42	17	29	13	38	15
30	16	27	14	32	13
33	15	26	12	35	15
36	16	34	15	26	13
41	16	40	16	31	14
30	13	34	14	22	10
28	13	29	16	31	14

7.1.12-vazifa. 7.1.7-jadval ma’lumotlariga ko‘ra sog‘in sigirlar mahsuldorligini (Y) ularni kunlik oziqlantirish (x_1) ga bog‘liqligini aniqlovchi korrelyatsiya, regressiya koeffitsientlarini va ishlab chiqarish funksiyasini tuzing. Olingan natijalarni tahlil qiling.

³Jadval ma’lumotlarini tuzishda foydalanilgan manba: <https://studfile.net/preview/8884861/page/6/>

Ko'rsatma. Bir omilli ishlab chiqarish funksiyasi: $Y=a_0+a_1x_1$.

7.1.7-jadval

**Sog'in sigirlarni yillik oziqlantirish darajasi va o'rtacha sut olinishi
bo'yicha ma'lumotlar**

Oylar	Sog'in sigirlarni kunlik o'rtacha sut berishi, kg	Sog'in sigirlar ratsionidagi oziqa birligi, kg
№	Y	X
1	27,1	6,5
2	28,4	7
3	29,8	9
4	30,0	8
5	31,5	7
6	32,0	8
7	33,0	10
8	34,0	9,5
9	38,0	9,6
10	39,2	9,7
11	38,3	8,5
12	33,6	7,5
13	32,9	7,7
14	33,7	7,8
15	33,6	7,5

7.1.13-vazifa. 7.1.8-jadval ma'lumotlariga ko'ra sog'in sigirlar mahsuldorligini (Y) ularni kunlik ratsionidagi oziqa birligi (x_1) va hazmlanadigan protein (x_1) miqdoriga bog'liqligini aniqlovchi korrelyatsiya, regressiya koeffitsientlarini va ishlab chiqarish funksiyasilarini tuzing. Olingan natijalarni tahlil qiling.

Ko'rsatmalar:

1) Sog'in sigirlar mahsuldorligini oziqa ratsionidagi oziqa birligi (kg) miqdoriga bog'liqligini ifodalovchi regressiya $Y=a_0+a_1x_1$ tenglamasini tuzing;

2) Sog'in sigirlar mahsuldorligini oziqa ratsionidagi hazmlanadigan protein (g) miqdoriga bog'liqligini ifodalovchi regressiya $Y=a_0+a_2x_2$ tenglamasini tuzing;

3) Sog'in sigirlar mahsuldorligini ozuqa ratsionidagi oziqa birligi (kg) va hazimlanadigan protein (g) miqdoriga bog'liqligini ifodalovchi regressiya $Y=a_0+a_2x_2+a_3x_3$ tenglamasini tuzing.

7.1.8-jadval

Sog'in sigirlarni yillik oziqlantirish darajasi va o'rtacha sut olinishi bo'yicha ma'lumotlar

Oylar	Sog'in sigirlarning kunlik o'rtacha sut berish miqdori, kg	Sog'in sigirlar ratsionidagi oziqa birligi, kg	Sog'in sigirlar ratsionidagi hazimlanadigan protein, g
№	Y	X1	X2
1	19,8	7,9	810
2	21,1	8,4	820
3	22,5	7,4	830
4	22,7	8,4	840
5	24,2	8,1	850
6	24,7	7,4	860
7	25,8	8,3	845
8	26,7	8,1	860
9	28,7	8,3	875
10	31,9	8,6	890
11	32	8,9	905
12	26,3	8,4	825

7.1.14-vazifa. 7.1.9-jadval ma'lumotlari asosida korrelyatsiya, regressiya koeffitsientlarini va ishlab chiqarish funksiyalarini tuzing. Olingan natijalarni tahlil qiling.

Ko'rsatmalar: 1) $Y=a_0+a_1x_1$, 2) $Y=a_0+a_2x_2$, 3) $Y=a_0+a_2x_2+a_3x_3$ regressiya tenglamalarini tuzing.

7.1.9-jadval

Chorvachilik fermer xo'jaliklari bo'yicha statistik ma'lumotlar

Xo'jaliklar nomeri	Mehnat unumdorligi	Fond bilan ta'minlanganlik	Elektrenergiya bilan ta'minlanganlik
N	Y	X1	X2
1	74	33	56

2	84	34	58
3	73	36	67
4	93	35	70
5	56	33	73
6	71	37	77
7	117	39	78
8	111	42	99
9	135	43	93
10	125	44	96

7.1.15-vazifa. Sog'in sigirlarni mahsuldorligini ularni kunlik oziqlantirishga bog'liqlik masalasi. "Naslli chorvachilik" chorvachilik fermer xo'jaligida sog'in sigirlardan sog'ib olinadigan kunlik sut miqdorini ularni kunlik oziqlantirishga miqdoriga bog'liqligini aniqlash talab etiladi. Boshlang'ich ma'lumotlar 7.1.10- jadvalda keltirilgan.

7.1.10-jadval

"Naslli chorvachilik" chorvachilik fermer xo'jaligida sog'in sigirlardan sut olish va ularni oziqlantirish ko'rsatkichlari

Yil oylari	Sog'in sigirlardan sut sog'ib olish miqdori	Sarflanadigan ozuqa birligi, kg	Sarflanadigan hazmlanadigan protein miqdori, gr.
№	Y	X_1	X_2
1	7,5	8,5	883
2	7,4	8,6	880
3	7,5	8,5	881
4	7,4	8,5	880
5	7,4	8,6	884
6	7,5	8,6	880
7	7,7	8,6	881
8	7,5	8,6	876
9	7,4	8,5	882
10	7,6	8,7	890

Vazifani bajarish uchun topshiriq va ko'rsatmalar:

Bunday mazmundagi masalalar ekonometrikani omilli bog'lanishlar ifodalovchi ishlab chiqarish funksiyalari orqali aniqlanadi va uning

modeli korrelyasiya tenglamalari ko'rinishida ifodalanadi. Chorva mollarini mahsuldorligini ifodalovchi bog'lanish bo'yicha ikki omilli korrelyatsion modelini umumiy ko'rinishi: $Y=a_0+a_1X_1+a_2X_2$ dan iborat bo'ladi.

Bu yerda: Y- fermer xo'jaligidagi sog'in sigirlarning mahsuldorligi, kunlik sut berish ko'rsatkichi, kg.

x_1 - bir bosh sog'in sigirni kunlik oziqlantirish darajasi, oziqa birligida, kg;

x_2 - protein bilan ta'minlanganlik darajasi, 1 kg oziqa birligida, gramm.

“Naslli chorvachilik” chorvachilik fermer xo'jaligi bo'yicha bir bosh sog'in sigirlardan olinadigan o'rtacha kunlik sut miqdori, ozuqalar (oziqa birligida) va protein bilan ta'minlanganlik darajasi (gramm) bo'yicha ma'lumotlar aniqlandi.

1) $Y=a_0+a_1x_1$ regressiya tenglamasini tuzing.

Bajarish usuli:

1.1) **Microsoft Excel** elektron jadvalini **Лист1**da 7.1.7-jadvalni tuzamiz (7.1.18-rasm.);

1.2) Lentani **Данные** vkladkasidan **Анализ данных** buyrug'ini beramiz. Ochilgan **Анализ данных** dialog oynasidagi vositalar ro'yxatidan **Регрессия**ni tanlab **ОК** tugmasini bosamiz.

	A	B	C	D
	Yil oylari	Sog'in sigirlardan sut sog'ib olish	Sarflanadigan ozuqa birligi, kg	Sarflanadigan hazmlanadigan protein, gr
1	№	Y	X1	X2
2	1	7,5	8,5	883
3	2	7,4	8,6	880
4	3	7,5	8,5	881
5	4	7,4	8,5	880
6	5	7,4	8,6	884
7	6	7,5	8,6	880
8	7	7,7	8,6	881
9	8	7,5	8,6	876
10	9	7,4	8,5	882
11	10	7,6	8,7	890
12				
13				
14				
15				

Регрессия

Входные данные

Входной интервал Y:

Входной интервал X:

☐ Метки

☐ Константа - ноль

☐ Уровень надежности: %

Параметры вывода

☐ Выходной интервал:

☒ Новый рабочий дист.

☐ Новая рабочая книга

Остатки

☐ Остатки ☐ График остатков

☐ Стандартизованные остатки ☐ График подбора

Нормальная вероятность

☐ График нормальной вероятности

ОК Отмена Справка

7.1.18-rasm.

Natijada elektron jadvalda **Регрессия** dialog oynasi ochiladi (7.1.18-rasm.). **Регрессия** dialog oynasini **Выходной интервал Y:** maydonini faolashtirib B3:B12 diapazondagi sonli kattaliklari sichqoncha bilan belgilaymiz. Natijada ajratilgan diapazondagi sonlar **Выходной интервал**

Y: ga qo'yiladi. Keyin **Выходной интервал X:** maydonini faolashtirib **C3:C12** dipazondagi kattaliklarni sichqoncha bilan ajratamiz. **OK** tugmasi bosilgan elektron jadvalni yangi listida **ВЫВОД ИТОГОВ** (Natijalar) chiqariladi (7.1.19-rasm.).

ВЫВОД ИТОГОВ									
Регрессионная статистика									
Множественный	0,446968413								
R-квадрат	0,199780762								
Нормированны	0,099753357								
Стандартная ош.	0,094352737								
Наблюдения	10								
Дисперсионный анализ									
	df	SS	MS	F	ачимость F				
Регрессия	1	0,01778	0,01778	1,99726	0,19529				
Остаток	8	0,07122	0,008902						
Итого	9	0,089							
Коэффициенты		артная оитатисти	2-Значениеи	ижние 95%	рхние 95%	ижние 95,	рхние 95,0%		
Y-пересечение	1,846341463	3,993517	0,462335	0,656155	-7,36272	11,05541	-7,36272	11,05541	
Переменная X 1	0,658536585	0,465975	1,413245	0,19529	-0,416	1,733077	-0,416	1,733077	

7.1.19-rasm.

R-квадрат = 0,199780762 = 2,0 omillar o'rtasida bog'lanish zaif;

Y-пересечение = 1,846341463 = 1,85, $a_0 = 1,85$;

Переменная X1 = 0,658536585 = 0,66, $a_1 = 0,65$;

“Sog'in sigirlardan sut sog'ib olish miqdori”ni “ozuqa birligi” omiliga bog'liqligini ifodalovchi regressiya tenglamasi quyidagicha bo'ladi:
 $Y = a_0 + a_1x_1 = 1,85 + 0,65x_1$.

Xulosa. Sog'in sigirlarga sarflanadigan ozuqa birligi bir kunda bir birlik (kg) oshirilsa, kunlik sut berish miqdori o'rtacha 0,65 kg ga oshadi.

2) $Y = a_0 + a_2x_2$ regressiya tenglamasini tuzing.

	A	B	C	D
	Yil oylari	Sog'in sigirlardan sut sog'ib olish	Sarflanadigan ozuqa birligi, kg	Sarflanadigan hazmlanadigan protein, gr
1	№	Y	X1	X2
2	1	7,5	8,5	883
3	2	7,4	8,6	880
4	3	7,5	8,5	881
5	4	7,4	8,5	880
6	5	7,4	8,6	884
7	6	7,5	8,6	880
8	7	7,7	8,6	881
9	8	7,5	8,6	876
10	9	7,4	8,5	882
11	10	7,6	8,7	890

Регрессия

Входные данные

Входной интервал Y: \$B\$3:\$B\$12

Входной интервал X: \$D\$3:\$D\$12

☐ Метки

☐ Константа - ноль

☐ Уровень надежности: 95 %

Параметры вывода

☐ Выходной интервал:

☒ Новый рабочий лист:

☐ Новая рабочая книга

Остатки

☐ Остатки

☐ Стандартизованные остатки

☐ График остатков

☐ График подбора

Нормальная вероятность

☐ График нормальной вероятности

OK

Отмена

Справка

7.1.20-rasm.

Ко'rsatma. Регрессия dialog oynasini **Выходной интервал Y:** maydonini faolashtirib B3:B12 diapazondagi sonli kattaliklarni **Выходной интервал X:** maydoniga D3:D12 dipazondagi sonli kattaliklar kiritiladi (7.1-20-rasm.).

Natijada hisoblash natijalari 7.1.21-rasmda keltirilgan kabi elektron jadvalning yangi listda taqdim etiladi.

	A	B	C	D	E	F	G	H	I
1	ВЫВОД ИТОГОВ								
2									
3	Регрессионная статистика								
4	Множественный R	0,237503915							
5	R-квадрат	0,05640811							
6	Нормированный R-	-0,061540877							
7	Стандартная ошибка	0,102457112							
8	Наблюдения	10							
9									
10	Дисперсионный анализ								
11		df	SS	MS	F	Значимость F			
12	Регрессия	1	0,00502032	0,00502	0,478242	0,508788			
13	Остаток	8	0,08397968	0,010497					
14	Итого	9	0,089						
15									
16		Коэффициенты стандартная ошибка Значение t Значение p Верхняя 95% Нижняя 95% Верхняя 95% Нижняя 95%							
17	Y-пересечение	1,741405588	8,31268456	0,209488	0,839304	-17,4277	20,91049	-17,4277	20,91049055
18	Переменная X 1	0,006519898	0,00942795	0,69155	0,508788	-0,01522	0,028261	-0,01522	0,028260785
19									

7.1.21-rasm.

Regressiya tenglamasi $Y = a_0 + a_2 x_2 = 1,74 + 0,0065 x_2$.

3) $Y = a_0 + a_1 x_1 + a_2 x_2$ ikki omilli regressiya tenglamasini tuzish uchun Регрессия dialog oynasini **Выходной интервал Y:** maydoniga B3:B12 diapazondagi sonli kattaliklarni **Выходной интервал X:** maydoniga C3:D12 dipazondagi sonli kattaliklar kiritiladi (7.1.21-rasm.).

	A	B	C	D	E	F
	Yil oylari	Sog'in sigirlardan sut sog'ib olish	Sarflanadigan ozuqa birligi, kg	Sarflanadigan hazmlanadigan protein, gr		
1	№	Y	X1	X2		
2	1	7,5	8,5	883		
3	2	7,4	8,6	880		
4	3	7,5	8,5	881		
5	4	7,4	8,5	880		
6	5	7,4	8,6	884		
7	6	7,5	8,6	880		
8	7	7,7	8,6	881		
9	8	7,5	8,6	876		
10	9	7,4	8,5	882		
11	10	7,6	8,7	890		
12						
13						

7.1.22-rasm.

7.1.23-rasmda elektron jadvalda ikki omilli bog‘lanishlarni ifodalovchi natijalar keltirilmoqda. Olingan natijalarni tahlil qilamiz.

R-квадрат = 0,203, omillar bog‘lanishi zaif;

Y=пересечение = 0,640458 = 0,64, $a_0 = 0,64$;

Переменная X1 = 0,619830 = 0,62, $a_1 = 0,61$;

Переменная X2 = 0,001743 = 0,001, $a_2 = 0,001$;

Ikki omilli regressiya tenglamasi $Y = a_0 + a_1x_1 + a_2x_2 = 0,64 + 0,61x_1 + 0,001x_2$ dan iborat bo‘ladi.

	A	B	C	D	E	F	G	H	I	J
1	ВЫВОД ИТОГОВ									
2										
3	Регрессионная статистика									
4	Множественный R	0,450695171								
5	R-квадрат	0,203126137								
6	Нормированный R-квадрат	-0,024552109								
7	Стандартная ошибка	0,100656256								
8	Наблюдения	10								
9										
10	Дисперсионный анализ									
11		df	SS	MS	F	ачимость F				
12	Регрессия	2	0,018078	0,009039	0,892163	0,451714				
13	Остаток	7	0,070922	0,010132						
14	Итого	9	0,089							
15										
16	Коэффициенты статистики t-Значение нижние 95% верхние 95% средние 95,0%									
17	Y-пересечение	0,640458396	8,223954	0,077877	0,940105	-18,8061	20,08702	-18,8061	20,08702	
18	Переменная X 1	0,619830593	0,54598	1,135262	0,293638	-0,67121	1,910869	-0,67121	1,910869	
19	Переменная X 2	0,001743896	0,010173	0,171426	0,868739	-0,02231	0,025799	-0,02231	0,025799	

7.1.23-rasm.

Mavzu bo‘yicha test savollari:

1) Ekonometrikaning maqsadi nima?

A) Iqtisodiy ma’lumotlarni aniq shaklda taqdim etish.

B) Real iqtisodiy ob’ektlarni modellashtirish va sonli tahlil qilish usullarini ishlab chiqish.

C) Statistik ma’lumotlarni yig‘ish va guruhlash usullarini belgilash.

D) Iqtisodiy holatlarning sifatli jihatlarini o‘rganish.

2) Korrelyatsion tahlil – bu bir ko‘rsatkichning boshqa ko‘rsatkichga... darajasini aniqlash uchun ishlatiladigan ommalashgan statistik tadqiqot usuli

A) bog‘liqmaslik

B) matematik

C) bog‘liqlik

D) ishonchlilik

3) Korrelyatsiya tahlilining maqsadi...

A) turli omillar o'rtasidagi bog'liqlik mavjudligini aniqlashdir.

B) yagona omil o'rtasidagi bog'liqlik mavjudligini aniqlashdir.

C) asosiy 3 ta omil o'rtasidagi bog'liqlik mavjudligini aniqlashdir.

D) 4 ta omil o'rtasidagi bog'liqlik mavjudligini aniqlashdir.

4) Korrelyatsiya koeffitsientini aniqlash statistik tadqiqotning...
usuli hisoblanadi.

A) yagona

B) uchlik

C) to'rtlik

D) ko'plik

5) Agar korrelyatsiya koeffitsientini qiymati:

A) musbat (ijobiy) bo'lsa, bitta ko'rsatkichning oshishi
ikkinchisining kamayishiga olib keladi.

B) musbat (ijobiy) bo'lsa, bitta ko'rsatkichning oshishi
ikkinchisining o'sishiga olib keladi.

C) musbat (ijobiy) bo'lsa, bitta ko'rsatkichning oshishi
ikkinchisining ta'sir etmaydi.

D) keltirilgan tasdiqlarni barchasi noto'g'ri.

6) Korrelyatsiya quyidagicha bo'lishi mumkin:

A) ijobiy - bir ko'rsatkich o'sganda, ikkinchisi ham o'sadi.

B) $r = 0,31 - 0,7$ - omillar o'rtasida bog'liqlik o'rtacha.

C) $r = 1$ - omillar o'rtasida bog'liqlik yuqori.

D) barcha keltirilgan tasdiqlar to'g'ri.

7) Korrelyatsiya koeffitsienti 0,86 ga teng. Demak,...

A) omillar o'rtasida bog'liqlik zaif.

B) omillar o'rtasida bog'liqlik o'rtacha.

C) omillar o'rtasida bog'liqlik kuchli.

D) omillar o'rtasida bog'liqlik mavjud emas.

8) Korrelyatsiya koeffitsientini....

A) Microsoft Excelni Мастер функций(Funksiya ustasi) yordamida
aniqlash mumkin. Aniq javobni tanlang.

B) Microsoft Excelni Мастер функций(Funksiya ustasi) yordamida
aniqlashda, KORREL funksiyasidan foydalaniladi.

C) Microsoft Excel'ni Мастер функций (Funksiya ustasi) yordamida aniqlashda, СРЕЗНАЧ funksiyasidan foydalaniladi.

D) Microsoft Excel'ni Мастер функций (Funksiya ustasi) yordamida aniqlashda, YeSLI funksiyasidan foydalaniladi.

9) Microsoft Excelni Пакет анализа (Tahlil paketi) yordamida korrelyatsiyani hisoblashda...

A) oldin Microsoft Excel ilovasini lentani Формула vkladkasiga Анализ данных vositasi (buyrug'i) o'rnatiladi.

B) oldin Microsoft Excel ilovasini lentani Вид vkladkasiga Анализ данных vositasi (buyrug'i) o'rnatiladi.

C) oldin Microsoft Excel ilovasini lentani Главная vkladkasiga Анализ данных vositasi (buyrug'i) o'rnatiladi.

D) oldin Microsoft Excel lentasini Данные (berilganlar) vkladkasiga Анализ данных vositasi (buyrug'i) o'rnatiladi.

10) Qoidaga ko'ra Microsoft Excel'ni Данные vkladkasidan Анализ данных buyrug'i berilib, Надстройки oynasidan... ajratiladi.

A) Пакет анализа (Tahlil paketi)

B) Пакет регрессии (Regressiya paketi)

C) Пакет корреляции (Korelyatsiya paketi)

D) Пакет параметров (Parametrlar paketi)

11) Omillar bog'liqligini ifodalovchi regressiya tenglamasi $Y=a_0+a_1x_1=3,9+6,1x_1$ berilgan. U quyidagi iqtisodiy mazmunga ega bo'ladi:

A) bir omilning bir birlikka oshirilishi, ikkinchi omilning o'rtacha qiymatini 3,9 birlikka oshiradi

B) bir omilning bir birlikka oshirilishi, ikkinchi omilning o'rtacha qiymatini 10 birlikka oshiradi

C) bir omilning bir birlikka oshirilishi, ikkinchi omilning o'rtacha qiymatini 6,1 birlikka oshiradi

D) bir omilning bir birlikka oshirilishi, ikkinchi omilning o'rtacha qiymatini 10 birlikka oshiradi

12) $Y=a_0+a_1x_1+a_2x_2+a_3x_3+...+a_nx_n$ regressiya tenglamasi berilgan. Bu tenglama...

A) ko'p omilli chiziqli regressiya tenglamasi.

B) ko'p omilli chiziqli regressiya tenglamasi.

C) 5 omilli chiziqli regressiya tenglamasi.

D) ko'p omilli parabolik regressiya tenglamasi.

13) Uch omilli chiziqli regressiya tenglamasini aniqlang.

A) $Y = a + bx + cx^2$

B) $Y = b/x + a$

C) $Y = a_0 + a_1x_1 + a_2x_2$

D) $Y = a_0 + a_1x_1 + a_2x_2 + a_3x_3$

14) To'g'ri tasdiqni aniqlang. Regressiya...

A) – o'zaro bog'lanmagan bir o'zgaruvchining sonli qiymatlari bilan, boshqa o'zgaruvchini o'rtacha qiymatini o'zgarishini aniqlovchi funksiyadir.

B) – o'zaro bog'langan bir o'zgaruvchining sonli qiymatlari bilan, boshqa o'zgaruvchini o'rtacha qiymatini o'zgarishini aniqlovchi funksiyadir.

C) – bir o'zgaruvchining sonli qiymatlari bilan, boshqa o'zgaruvchini o'rtacha qiymatini o'zgarishini aniqlovchi funksiyadir.

D) – o'zaro bog'langan bir o'zgaruvchining sonli qiymatlari bilan, shu o'zgaruvchini o'rtacha qiymatini o'zgarishini aniqlovchi funksiyadir.

15) Regressiya chiziqli va chiziqli bo'lmagan bog'lanishlarga ajratiladi.

A) chiziqli bo'lgan bog'lanishlarga ajratiladi.

B) chiziqli bo'lmagan bog'lanishlarga ajratiladi.

C) parabolik bo'lgan bog'lanishlarga ajratiladi.

D) chiziqli va chiziqli bo'lmagan bog'lanishlarga ajratiladi.

16) Darajali regressiya tenglamsini ko'rsating.

A) $Y = a + bx + cx^2$;

B) $Y = b/x + a$

C) $Y = ax^b$

D) $Y = ab^x$

17) Ko'p regressiyali bog'lanish tenglamasini belgilang

A) $Y_x = a + bx^2$

B) $Y = a + bx + cx^2$

C) $Y = a + b_1x_1 + b_2x_2 + \dots + b_kx_k$

D) $Y = a \times x^b$

18) Ko'p korrelyatsiya koeffitsenti quyidagi qiymatlardan qaysi birini qabul qilishi mumkin?

- A) 1,5
- B) -1,2
- C) 0,81
- D) 1,5

19) Korrelyatsion tahlil...

- A) holatlarning o'zaro bog'lig'ini o'rganadi.
- B) vaqtda holatni rivojlanishini o'rganadi.
- C) hodisalar tuzilishini o'rganadi.
- D) holatlarning o'zaro bog'liqlik shakllarini o'rganadi.

20) Regressiya nima?

- A) Ma'lumotlarni tahlil qilish usuli.
- B) Kelajakdagi qiymatlarni bashorat qilish usuli.
- C) O'zgaruvchilar orasidagi munosabatni tavsiflovchi statistik model.
- D) Koeffitsientlarni topishning matematik tenglamasi.

21) Ishlab chiqarish funksiyalarining umumiy ko'rinishini quyidagicha ifodalash mumkin: $Y=f(x_1, x_2, \dots, x_n)$. Bu yerda:

- A) X -natijaviy ko'rsatkich; $y_1, y_2, \dots, y_n$ -ishlab chiqarish omillari
- B) Y -natijaviy ko'rsatkich; $t_1, t_2, \dots, y_n$ -ishlab chiqarish omillari
- C) keltirilgan barcha javoblar noto'g'i
- D) Y -natijaviy ko'rsatkich; $x_1, x_2, \dots, x_n$ -ishlab chiqarish omillari

22) Korrelyatsion tahlil - bu matematik statistikaning uslublar to'plamidan iborat bo'lib, u tadqiq qilinayotgan hodisalarning belgilari o'rtasidagi... o'zaro aloqasini o'rganadi.

- A) sonli bog'liqliklarni
- B) matnli bog'liqliklarni
- C) mantiqiy bog'liqliklarni
- D) global bog'liqliklarni

23) Ko'p omilli chiziqli bog'langan regressiya tenglamasini umumiy ko'rinishi quyidagicha bo'ladi: $Y=a_0+a_1x_1+a_2x_2+a_3x_3+\dots+a_nx_n$. Bu yerda Y -ishlab chiqarish natijasi,...

- A) $x_1, x_2, x_3, \dots, x_n$ - ishlab chiqarish omillari, $a_0, a_2, a_3, \dots, a_n$ - regressiya koeffitsiyentlari

B) $x_1, x_2, x_3, \dots, x_n$ -regressiya koeffitsiyentlari, $a_0, a_2, a_3, \dots, a_n$ - ishlab chiqarish omillari

C) bu tenglama ikki omilli

D) bu tenglama uch omilli

24) $Y = a_0 + a_1x_1 + a_2x_2 + a_3x_3 + \dots + a_nx_n$ Ishlab chiqarish funksiyalarini yechish deyilganda, uning $a_0, a_2, a_3, \dots, a_n$ - ... topish tushuniladi.

A) regressiya koeffitsiyentlarini

B) mantiqiy koeffitsiyentlarini

C) tenglamani yechish

D) no'malumlarni aniqlash

25) Bir omilli bog'lanish umumiy holda quyidagi chiziqli funksiya ko'rinishda ifodalanadi:

A) $Y = a_0 + a_1x_1$

B) $Y = a_0 + a_1x_1 + a_2x_2$

C) $Y = a_0 + a_1x_1 + a_2x_2 + a_3x_3$

D) $Y = a_0$

26) Ikki omilli bog'lanish umumiy holda quyidagi chiziqli funksiya ko'rinishda ifodalanadi:

A) $Y = a_0 + a_1x_1 + a_2x_2$

B) $Y = a_0 + a_1x_1$

C) $Y = a_0 + a_1x_1 + a_2x_2 + a_3x_3$

D) $Y = a_0$

Nazorat savollari:

1) Korrelyatsiya va korelyatsion tahlil tushunchalarini tasniflang.

2) Regressiya va regresmion tahlil tushunchalarini tasniflang.

3) Korrelyatsiya koeffitsientini qiymatlari o'zgarishi qaralayotgan omillarni o'zgarishiga qanday ta'sir etadi?

4) Korrelyatsiya koeffitsienti qanday oraliqlarda o'zgaradi. Bog'lanishlar mohiyatini aniqlang.

5) Microsoft Excel ilovasida korrelyatsiya koeffitsientini aniqlash usullarini tasniflang.

6) Microsoft Excel ilovasida regressiya koeffitsientlarini aniqlashni tasniflang.

7) Microsoft Excel'ga Пакет анализа (Tahlil paketi) vositasini o'rnatish jarayonini tasniflang.

8-amaliy mashg'ulot: Kompyuter tarmoqlari. Sohada Internet xizmatlari

Kompyuter tarmoqlari. IP-adres

Sohada Internet xizmatlaridan foydalanish

Kompyuter tarmoqlari. IP-adres

IP-adres (Internet Protocol address) – bu Internetdagi qurilmani aniqlaydigan sonli belgi. IP-adres ma'lumotlarni marshrutlash (yo'naltirish) va tarmoqdagi qurilmalar o'rtasida aloqani o'rnatish uchun ishlatiladi. IPv4 formatida IP-adres nuqtalar bilan ajratilgan to'rtta o'nlik sonidan iborat bo'ladi, masalan, 192.168.0.1.

IPv6 formatida IP-manzil ikki nuqta bilan ajratilgan sakkizta to'rt xonali o'noltilik sanoq tizimidagi sonlardan iborat bo'ladi. Masalan, 2001:0db8:85a3:0000:0000:8a2e:0370:7334.

IP-adres tarmoqdagi ma'lumotlarni jo'natuvchi va oluvchini aniq aniqlash imkonini beradi.

IP (Internet protokol) – bu tarmoq darajasidagi protokol. U qurilmalarni adreslash va tarmoqlararo o'zaro harakati qoidalarini belgilaydi.

IP – protokolning asosiy xususiyati adreslashdir.

IP – adres unikal raqamli identifikatordir. U tarmoq adresi (manzili) va ushbu tarmoqning tugun adresidan iborat


IP-adres:	DNS-adres:
1) nuqta bilan ajratilgan sonlarning to'rtta kontentidan iborat bo'ladi, masalan, u 127.96.56.18 kabi ko'rinishda bo'lishi mumkin;	https://ssuv.uz https://ssuv.uz/ru https://ssuv.uz/en https – berilganlarni uzatish protokoli; ssuv – server nomi;
2) statik (o'zgarmas) va dinamik (o'zgaruvchi) bo'lishi mumkin.	uz – domen nomi, u sayt serverini O'zbekistonga mansubligini bildiradi; uz -, uz/ru - va uz/en – lar saytning o'zbek, rus va ingliz tilidagi sahifalari.

http (HyperText Transfer Protocol — “gipermatnlarni uzatish protokoli”). U amaliy darajadagi tarmoq protokoli hisoblanadi;
https (Hypertext Transport Protocol Secure) - bu sayt va foydalanuvchi qurilmasi oʻrtasida uzatilgan maʼlumotlarning yaxlitligi, maxfiyligini va xavfsizligini taʼminlaydigan protokol;
DNS (Domain Name System - Domen nomlari tizimi). DNS-adres, bu tarmoq manzili boʻlib, vazifasi domen nomlarini tarmoqdagi kompyuterlar va serverlarning IP manzillariga aylantirib beradi va aksincha. DNS manzili Internetda resurslarni qidirish jarayonini soddalashtiradi va xavfsiz ulanishni taʼminlaydi. Manzilning nuqta bilan ajratilgan qismi domen deb ataladi, masalan, uz, ru, tj.

8.1.1-vazifa. Shaxsiy kompyuterning IP adresini aniqlash.

Bajarish usuli:

- 1) **Пуск** tugmasini faollashtiring;
- 2) **Windows – Служебные (Windows-Xizmatlar)** katalogini faollashtiring;



8.1.1-rasm.

- 3) Oynaga ochilgan **Диспетчер задач** (Masalalar dispatcher) muloqot oynasidan

Производительность (Unumdorlik) vkladkasini faollashtiring (8.1.1-rasm.). Bu oynada foydalanuvchini joriy kompyuterga xos boʻlgan IPv4-adresi 192.168.43.161 dan iborat

Свойства	
SSID:	AndroidAPE008
Протокол:	Wi-Fi 4 (802.11n)
Тип безопасности:	WPA2-Personal
Диапазон сети:	2,4 ГГц
Канал сети:	6
Скорость линии (прием и передача):	600/72 (Mbps)
Локальный IPv6-адрес канала:	fe80::b509:9656:af3d:f767%13
IPv4-адрес:	192.168.43.161
DNS-серверы IPv4:	192.168.43.1
Изготовитель:	Ralink Technology, Corp.
Описание:	802.11n USB Wireless LAN Card
Версия драйвера:	5.1.25.0
Физический адрес (MAC):	50-2B-73-A5-01-E7

8.1.2-rasm.

bo‘ladi. Javob: 192.168.43.161, bu yerda foydalanuvchi kompyuteriga faol tarmoqdan ajratilgan manzil to‘rtinchi kontentdagi 161 son bo‘ladi.

Ko‘rsatmalar.

1) **Диспетчер задач** (Masalalar dispatcher)ni yuklash uchun klaviaturadan Ctrl+Alt+Delete klavishlar kombinatsiyasi (birikmasi) bosiladi.

2) **Пуск** menyusi faollashti-riladi va sichqonchani o‘ng tugmasini bosib ochiladigan kontekst menyudagi buyruqlar ro‘yxatidan **Диспетчер задач** tanlanadi.

8.1.2-vazifa. Windows operatsion tizimini **Параметры.Система** (Parametrlar.Tizim) vastasi yordamida **IP-adresni** aniqlang.

1) **Пуск** menyusi ro‘yxatidan **Параметры** (Parametrlar) faollashtiriladi.

2) **Параметры** muloqat oynasidan **Сеть и Internet** (Tarmoq va Internet) yozuvi bosiladi.

3) **Параметры** oynasini chap tomonidagi paneldan **Состояние** faollashtiriladi va o‘ng tomondagi paneldan **Свойства** (Xossalar) tugmasi bosiladi. Natijada **Свойства** oynasining quyi qismda IP adres 8.1.2-rasmda keltirilgan ko‘rinishda foydalanuvchiga taqdim etiladi.

8.1.3-vazifa. Mobil qurilmalarni IP adresni aniqlashni tasniflang.

Vazifani bajarish uchun ko‘rsatmalar:

1) **Android** operatsion tizimi o‘rnatilgan mobil qurilmani oynasidan **Настройки** (Sozlamalar) yuklanadi;

2) **Настройки** oynasida ochilgan ro‘yxatlar ichidan **Сведения о телефоне** (Telefon haqida ma’lumot) yuklab, **Состояние** (Holat) bosiladi. Ochilgan oynada mobil qurilma **IP** adresi keltiriladi.

Internet xizmatlari

- bu Internet-serverlar tomonidan foydalanuvchiga taqdim etiladigan xizmatlar. Barcha Internet xizmatlari mijoz-server tamoyili asosida ishlaydi. Eng mashhur internet xizmatlari: butunjahon internet to‘ri (World Wide Web), elektron pochta, jo‘natmalar ro‘yxati, qidiruv tizimlari, elektron kutubxonalar, yangiliklar guruhlar (asosan usenet), internet radio, internet televidenie, internet-reklama, IP – telefoniya va masofaviy o‘qitish.

Veb-saytlar

Veb-sahifa Internet tarmog'idagi gipermatnli hujjat.

Veb-sayt-bu umumiy mavzu va Дизайн bilan birlashtirilgan, giperhavollar bilan bog'langan veb-sahifalar guruhi.

Veb-server, bu HTTP (yoki HTTPS) protokoli orqali so'rovlarni qabul qiladigan va ularga veb-sahifalar va qo'shimcha ma'lumotlarni (rasmlar, ovozli fayllar, videofayllar) qaytarish orqali javob beradigan dastur.

Brauzer-bu veb-sahifalarni monitor ekranida ko'rish uchun mo'ljallangan dastur.

HTML – Hypertext Markup Language - gipermatnni belgilash tili, veb-sahifalarni yaratish tili.

Veb-sahifalar statik yoki dinamik bo'lishi mumkin.

IP telefoniya – bu IP protokoli yordamida Internet orqali ovozli ma'lumotlarni uzatish texnologiyasi.


Qidiruv tizimi – bu foydalanuvchilarga Internetdagi ma'lumotlarni kalit so'zlar yoki iboralar bo'yicha qidirish imkonini beruvchi veb-xizmat. Qidiruv tizimlari ko'plab veb-sahifalarni skanerlaydi va har bir sahifaning mazmuni haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan qidiruv indeksini yaratadi. Foydalanuvchilar qidiruv satriga so'rovlarni kiritishlari va qidiruv natijalarini tegishli veb-sahifalarga havolalar ro'yxati sifatida olishlari mumkin.

1. **Qidiruv tizimi** - bu foydalanuvchilarga kalit so'zlar yoki iboralarni kiritish orqali Internetda ma'lumot topishga imkon beruvchi onlayn xizmat.

2. **Qidiruv tizimi** qidiruv natijalarini foydalanuvchi uchun foydali bo'lishi mumkin bo'lgan veb-sahifalarga havolalar ro'yxati sifatida ko'rsatadi.

3. **Qidiruv tizimlari** veb-sahifalarni foydalanuvchi so'roviga mos kelishiga qarab tahlil qilish va tartiblash uchun qidiruv algoritmlaridan foydalanadi.

Ommaviy qidiruv tizimlari: Google (google.com), Bing (bing.com), Yahoo (yahoo.com), Baidu (baidu.com) - Xitoy, Yandex (yandex.ru) – Rossiya.




8.1.3-rasm. Google va Яндекс qidiruv tizimlari oynasini ko‘rinishidan fragment.

Brauzerlar

Brauzer – bu foydalanuvchiga Internetdagi veb-sahifalarni ko‘rish imkonini beruvchi dastur. Brauzer turli saytlarga kirishni ta’minlaydi, veb-sahifalar tarkibini ko‘rsatadi, ma’lumotlarni qayta ishlaydi, so‘rovlarni bajaradi va veb-saytlarning turli elementlari bilan o‘zaro aloqada bo‘lishga imkon beradi. Eng mashhur brauzerlarga **Google Chrome, Mozilla Firefox, Safari, Microsoft Edge, Яндекс** va **Opera** kiradi.

1. **Браузер** – bu foydalanuvchilarga veb-sahifalarni ko‘rish, Internetga kirish va multimedia kontentini ko‘rsatish imkonini beruvchi dastur.

2. Brauzer foydalanuvchilarga veb-sayt URL manzillarini kiritish, havolalarga o‘tish, zakladkani saqlash va hokazolarga imkon beradi.



3. Brauzerlar turli funksiyalarga ega, masalan, parollarni saqlash, reklamalarni blokirovka qilish, yorliqlarni boshqarish va boshqalar.

Shunday qilib, qidiruv tizimi va brauzer o'rtasidagi asosiy farq shundaki, qidiruv tizimi Internetda axborotlarni qidirish uchun, brauzer esa veb-saytlarni ko'rish va ular bilan ishlash uchun ishlatiladi.

Tarjimon dasturlar

Sohaga oid hujjatlar bilan ishlashda onlayn tarjimonlar bilan ishlash. Internetda hujjatlar, nutq va hatto tasvirlarni tarjima qilishda yordam beradigan ko'plab xizmatlar mavjud. Biroq, ularning hammasi ham o'z funksional imkoniyatlarini hozirgi talablarga javob beradigan darajada bajara olmaydi. Misol uchun, har bir tarjimon xizmatida tasvirni tarjima qilish funksiyasi, keng lug'at yoki tarjima qilingan matnning ovozi mavjud emas. Tarjimon xizmatidan foydalanish oson bo'lishi kerak. Saytni baholashning asosiy mezonlari, albatta, tarjima sifati va kerakli tilning mavjudligiga bog'liq.


Sohada Internet xizmatlaridan foydalanish

Google Переводчик: <https://translate.google.com>

8.1.4-vazifa. Google Переводчик - Google Tarjimon bilan faylli hujjatlarni tarjima qilish.



Ko'rsatmalar.




8.1.5-rasm.

1-qadam. Google Переводчик Internet qidiruv tizimlari yoki brauzerlar orqali yuklanadi;

2-qadam. Google Переводчик yuklanganga uning ko'rinishi 8.1.3-rasmda keltirilgan ko'rinishni oladi. Tarjimon foydalanuvchiga matn

(Текст), tasvir (Изображения), hujjatlar (Документы) va saytlar (Сайты) tarjima qilishni taklif etadi.

3-qadam. Google Переводчик oynasidan **Текст** vkladkasi faollashtirilib, **Определить язык** (Tilni tanlash) satridan oynani chap tomondagi blokidan matnni original tili (masalan, **русский**), o'ng tomondagi panelda tarjima qilinishi kerak bo'lgan til tanlanadi (masalan, **узбекский**). Oynadagi marker (bayroqcha) faollashtirilsa, tillar ro'yxati taklif etiladi. Bu ro'yxatdan original va tarjima qilinishi kerak tillar tanlanadi. Oynani chap tomonidagi panel oynasiga tegishli matn kiritiladi (8.1.6-rasm.).




8.1.6-rasm.

4-qadam. Google Переводчик oynasini o'ng tomondagi panelni quyi qismida **Копировать** va **Отправить перевод** (Tarjimani jo'natish, masalan elektron pochtaga) tugmalari o'rnatilgan. Bu buyruqlar bilan tarjima qilingan matnni nusxasini olish yoki elektron pochtaga jo'natish mumkin.

8.1.5-vazifa. Google Переводчик - Google Tarjimon bilan fayl ko'rinishda rasmiylashtirilgan hujjatlarni tarjima qilish.

Ko'rsatmalar.



8.1.7-rasm.

1-qadam. Google Переводчик oynasidan Документы vkladkasi faollashtirilib, Отправить перевод (Tilni tanlash) satridan kerakli til parametrlari o'rnatiladi. Natijada tarjimon oynasi 8.1.8-rasmda keltirilgan ko'rinishni oladi.


2-qadam. Hujjat faylini tarjima qilish uchun u Google Переводчик dasturiga yuklanadi.

1-usul. Tegishli fayl sichqoncha ajratilib Google Переводчик oynasini Перетащите (Siljiting) maydoniga siljtiladi.


2-usul. Google Переводчик oynasini o'ng tomonidagi panelidan Выбрать файл (Faylni tanlash) tugmasi bosiladi. Oynaga ochilgan dialog oynasidan tegishli fayl tanlanadi va Открыть buyrug'i beriladi (8.1.8-rasm.). Natijada Google Переводчик oynasi 8.1.9-rasmda keltirilgan ko'rinishni oladi.

3-qadam. Google Переводчик oynasini Перевести (tarjima qilish) tugmasi bosiladi. Fayl tarjimasi amalga oshirilgach Скачать перевод (Tarjimani yuklash) buyrug'i beriladi (8.1.10-8.1.11-rasmlar).


4-qadam. Tarjima qilingan faylni kompyuter xotirsiga yuklaymiz. Buning uchun Google Переводчик oynasini o'ng tomoni yuqori burchagida joylashgan Загрузки tugmasini bosamiz va ochilgan fayllar ro'yxatidan tegishli faylni tanlaymiz (8.1.11-rasm.).




8.1.8-rasm.



8.1.9-rasm.



8.1.10-rasm.



8.1.11-rasm.

Практическая работа №1. Настройка программы-браузера.

Цель работы: освоение основных возможностей программы-браузера Internet Explorer.

Теоретическая часть:

Для связи с Internet используется специальная программа — браузер. результате в современных браузерах объединяются все возможные приложения для доступа к Internet.

Сегодня наиболее популярными браузерами являются Netscape Navigator и Internet Explorer. Основное назначение браузера – загрузка Веб-страницы из Интернета и отображение её на экране.

Практическая часть

1. Создайте папку на рабочем столе и переименуйте её.
2. Откройте браузер Internet Explorer

8.1.12-rasm. Rus tilida berilgan **Word** hujjati.

Amaliy ish № 1. Brauzer dasturini sozlash.

Ishning maqsadi : asosiy qobiliyatlarni o'zlashtirish brauzer dasturlari Internet Explorer .

Nazariy qism :

Internet bilan bog'lanish uchun maxsus dastur - brauzer ishlatiladi.

Natijada, zamonaviy brauzerlar Internetga kirish uchun barcha mumkin bo'lgan ilovalarni birlashtiradi.

Bugungi kunda eng mashhur brauzerlar Netscape Navigator va Internet Explorer. Brauzerning asosiy maqsadi Internetdan Web-sahifani yuklab olish va uni ekranda aks ettirishdir.

Amaliy qism

8.1.13-rasm. **Google Переводчик**da tarjima qilingan Word hujjati.

5-qadam. Tarjima qilingan Word hujjatida tahrirlash ishlari amalga oshiriladi.


Ссылка - Havola (veb-havola, giperhavola, link) - u bosilganda foydalanuvchi boshqa sahifaga yoki boshqa saytga o'tadigan matn yoki grafik element. Odatda, havola rang bilan ajratiladi va/yoki sahifadagi matnning qolgan qismidan farq qilishi uchun tagiga chiziladi. Veb-havolalar internetdagi sahifalar va saytlar o'rtasidagi aloqaning asosiy vositasidir.

URL-adres. URL atamasi, ingliz tilida “**Uniform Resource Locator**”, rus tilida – “**Унифицированный указатель ресурса**” va o'zbek tilida “**Resurslarni birlashgan ko'rsatuvchisi**” ma'nosini beradi. URL-manzillar birinchi marta 1990 yilda ishlatilgan. U Internet tarmog'ining yaratuvchisi - Tim Berners-Li ga tegishli.

URL (Resurslarning yagona joylashuvi) - bu resursning Internetda joylashgan joyini noyob tarzda aniqlaydigan qator.

URLlar brauzerlarni adres satrida ko‘rsatiladi.


Masalan, <https://translate.google.com> **Google Переводчик** dasturini URL adresi deyiladi va brauzerni adres satrida ko‘rinadi (8.1.14-rasm.).



8.1.14-rasm.

8.1.6-vazifa. Google Переводчик - Google Tarjimon bilan saytlarni tarjima qilish.


1-qadam. Qidiruv tizimi yoki brauzerda “**Кодирование информации**” (“Axborotni kodlash” mavzusida qidiruvni amalga oshiramiz⁴. Taqdim qilingan saytlar ro‘yxatidan, masalan, “Кодирование информации” tanlansa u brauzerni yangi vkladkasiga yuklanadi (8.1.15-rasm.).



8.1.15-rasm.


2-qadam. Yuklangan veb-saytni nomi **URL**-adresida qidiruv satrida keltiriladi. Veb-saytni manzilini nusxasini olish uchun, sichqoncha ko‘rsatkichi bilan qidiruv satri faollashtiriladi va kontekst menyudan **Копировать** buyrug‘i beriladi. **Вставить** buyrug‘i bilan olingan nusxa faol hujjatga qo‘yiladi.

⁴ https://spravochnick.ru/informatika/kodirovanie_informacii/ - Кодирование информации.



8.1.16-rasm.

3-qadam. Google Переводчик – oynasidan **Сайты** (Saytlar) vkladkasini faollashtiramiz. Oynada ruskiy-uzbekskiy parametrlarini oʻrnatamiz va **Сайт** nomli darchada **Копировать-Вставить** buyruqlarini qoʻllab tegishli saytini veb-manzilini oʻrnatib, **Перевести** tugmasini bosamiz (8.1.17-rasm.).




8.1.17-rasm.

Natijada:

Tarjima qilingan saytini veb-mazili

[https://spravochnick-ru.translate.goog/informatika/kodirovanie_informacii/?_x_tr_sl=ru&_x_tr_tl=uz&_x_tr_hl=ru&_x_tr_pto=wapp](https://spravochnick.ru.translate.goog/informatika/kodirovanie_informacii/?_x_tr_sl=ru&_x_tr_tl=uz&_x_tr_hl=ru&_x_tr_pto=wapp) – kabi boʻladi;

Veb-sayt oynasi 8.1.18 – rasmda keltirilgan koʻrinishda boʻladi.




8.1.18-rasm.


8.1.7-vazifa. Яндекс Переводчик-Яндекс Tarjimon dasturidan foydalanishni tasniflang.



1) <https://yandex.com> manzil bilan Yandeks qidiruv tizimi yuklanadi.




8.1.19-rasm.




8.1.20-rasm.

2) **Yandex** qidiruv tizimi oynasidan “**Переводчик**” vkladkasini faollashtiramiz (8.1.19-rasm.). Natijada Yandeks tarjimon dasturi **Текст** (Matn) vositasi faol holatda yuklanadi (8.1.20-rasm.).

Tarjimon oynasini chap paneliga rus tilidagi matn kiritiladi va o'ng tomondagi panel maydonida matn tarjimasi taqdim etiladi (8.1.21-rasm.).



8.1.21-rasm.



8.1.22-rasm.

3) Kompyuterdagi hujjatlarni tarjima qilish uchun Yandeks tarjimon dasturini **Документы** (Hujjatlar) tugmasi bosiladi (8.1.22-rasm.). **Перетащите файл сюда или выберите вручную** (Shu yerga faylni siljiting yoki qo'lda amalga oshiring) buyrug'i bilan maydoniga tarjima qilinishi kerak faylni siljitib joylashtirish mumkin. Yoki **Перетащите файл сюда или выберите вручную** buyrug'ini berib tegishli papka va fayl tanlanib **Открыть** tugmasi bosiladi.


Natijada tarjima qilingan Word hujjati **Яндекс** tarjimon dasturi oynasida 8.1.21-rasmda keltirilgan ko'rinishda ochiladi. Oynani **Скачать** buyrug'i bilan tarjima qilingan fayl kompyuter xotirasiga yuklanadi. Oynani yuqori qismida **Перевод** (Tarjima) va **Сравнение** (Solishtirish) tugmalari joylashtirilgan. Agar **Сравнение** tugmasi bosilsa tarjima oynasi ikkita panelga ajratiladi. Chap tomondagi panelda rus

tilidagi matn, chap tomondagi panelda tarjima qilingan o‘zbekcha matn keltiriladi.



8.1.23-rasm.


4) Saytlarni tarjima qilish uchun Yandex tarjimon dasturini **Сайты** (Saytlar) tugmasi bosiladi (8.1.22-rasm.). Oynani **Введите адрес сайта** (Sayt manzilini kiriting) darchasiga tarjima qilinishi kerak bo‘lgan URL manzili kiritiladi. Masalan, quyidagi veb-sayt manzili <https://hi-tech.mail.ru/review/103533-best-browser/> kiritilsa yangi veb-sahifada o‘zbek tiliga tarjima qilinagan sayt ochiladi (8.1.25-8.1.26-rasmlar.).



8.1.24-rasm.



8.1.25-rasm. Rus tilidagi veb-sahifani ko‘rinishidan fragment.



8.1.26-rasm. Veb-sahifani rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan ko‘rinishidan fragment.


8.1.8-vazifa. Sohaga doir axborotlarni Telegram missenjerining tarjimon servislaridan foydalanib tarjima qiling.

Ko‘rsatmalar:

- 1) Telegram missenjerining qidiruv oynasida “Tarjimon bot” yoki “**Бот переводчик**” nomli qidiruvlarni amalga oshiring (8.1.27-rasm.);
- 2) Tanlangan “Tarjimon bot” talablari bo‘yicha harakatlarni amalga oshiring. Tillar kesimida tarjima parametrlarini o‘rnating;
- 3) Telegramning tarjima xizmatlaridan foydalanib sohaga doir matnli axborotlarni tarjima qiling
- 4) Tavsiya etiladigan tarjimon botlar:

<https://t.me/UzTranslateBot>
https://t.me/Russkiy_Uzbekskiy_perevodchik
https://t.me/tlgbot.ru/drugie/3369-uzbekskiy-perevodchik.html?utm_referrer=https%3A%2F%2Fyandex.uz%2F
 Uzbekskiy perevodchik - telegram bot: uztranslatebot
https://t.me/Russkiy_Uzbekskiy_perevodchik
https://t.me/Translates_bot - Tarjimon RUS-UZB, Uz-Ru-En
https://t.me/translatergoogle_bot - Perevodchik ENG-RUS-UZB
<https://t.me/TranslateRuBot> - PROMT.Translate

2) Ommalashgan telegram bot tarjimonlar⁵: @uztranslatebot, @translobot, @LingvoBot, @YtranslateBot, @PronunciationBot, @Translate_Bot,



9.1.27-расм.

8.1.9-vazifa. Sohaga doir axborotlarni qayta ishlashda tarjimon dasturlardan foydalanish.

⁵ Манба: <https://it-tehnik.ru/telegram/bot-perevodchik.html>

1-topshiriq. Microsoft Word'da yangi hujjat tuzing va uni tegishli nom bilan kompyuter xotirasida saqlang.

1.1) Microsoft Word hujjatiga quyida keltirilayotgan ro'yxatdan yo'nalishingizga doir matnlarni kiriting:

Biotexnologiya (tarmoqlar bo'yicha)

Biotexnologiya: darsliklar va qo'llanmalar

Biotexnologiya: masofaviy o'qish kurslari

Veterinariya biotexnologiyasi

Veterinariya biotexnologiyasi: darsliklar va qo'llanmalar

Veterinariya biotexnologiyasi: masofaviy o'qish kurslari

Agronomiya

Agronomiya: darsliklar va qo'llanmalar

Agronomiya: masofaviy o'qish kurslari

Zooinjeneriya (turlari bo'yicha)

Zooinjeneriya: darsliklar va qo'llanmalar

Zooinjeneriya: masofaviy o'qish kurslari

Chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi

Chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi: darsliklar va qo'llanmalar

Chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi: masofaviy o'qish kurslari

O'simlikshunoslik,

O'simlikshunoslik: darsliklar va qo'llanmalar

O'simlikshunoslik: masofaviy o'qish kurslari

Veterinariya meditsinasi

Veterinariya meditsinasi: darsliklar va qo'llanmalar

Veterinariya meditsinasi: masofaviy o'qish kurslari

Veterinariya farmasevtikasi

Veterinariya farmasevtikasi: darsliklar va qo'llanmalar

Veterinariya farmasevtikasi: masofaviy o'qish kurslari

Veterinariya sanitariya ekspertizasi

Veterinariya sanitariya ekspertizasi: darsliklar va qo'llanmalar

Veterinariya sanitariya ekspertizasi: masofaviy o'qish kurslari

2-topshiriq. Internet tarmog‘i onlayn tarjimon dasturlaridan birini yuklang. Masalan, “**Google Переводчик**”ni⁶. O‘z yo‘nalishingizga tegishli matnni rus va ingliz tilida tarjima qiling.

Ko‘rsatmalar:

2.1) Tarjimon dasturida til parametrlarini o‘rnating. Masalan, uzbekskiy-russkiy, russkiy-angliyskiy, uzbekskiy-angliyskiy;

2.2) Tarjimon dasturi bilan ishlash jarayonida **Копировать-Вставить** buyruqlaridan foydalaning.

Natijada o‘zbek, rus va ingliz tilida tegishli matnni tarjimalariga ega bo‘lamiz, masalan (8.1.28-8.1.29-rasmlar) :

Biotexnologiya (tarmoqlar bo‘yicha)

Бiotexnologiya: darsliklar va qo‘llanmalar

Бiotexnologiya: masofaviy o‘qish kurslari

Биотехнология (по отраслям)


Биотехнология: учебники и пособия

Биотехнология: курсы дистанционного обучения

Biotechnology (by industry)


Biotechnology: textbooks and manuals

Biotechnology: distance learning courses




8.1.28-rasm.

⁶ <https://translate.google.uz/?sl=uz&tl=ru&op=translate>



8.1.29-rasm.

3-topshiriq. Kompyuterning (D:) lokal diskida yangi papka tuzing va unga tegishli nom bering, masalan, uni “Mening kitoblarim” kabi nomlash mumkin.



8.1.30-rasm.

3.1) Internet qidiruv tizimlarini birida o‘zbek, rus va ingliz (masalan, “Biotexnologiya: darsliklar va qo‘llanmalar”, “**Биотехнология: учебники и пособия**”, “**Biotechnology: textbooks and manuals**”) tillarida qidiruvlarni amalga oshiring;

3.2) Uchala tilida aniqlangan qidiruv natijalarini tahlil qiling;

3.3) Faoliyatingizga tegishli veb-saytlarni yuklang;

3.4) Kerakli veb-sahifalarni, darslik va qo‘llanmalarni kompyuterdagi papkaga saqlang.

Ko‘rsatma. Joriy sayt veb-sahifasini kompyuterda saqlash uchun, Internetning faol veb-sahifasida kontekst menyudan “**Сохранить как...**” buyrug‘i beriladi.

Elektron pochta. Kompyuter tarmog‘i foydalanuvchilari o‘rtasida elektron xabarlarini jo‘natish va qabul qilish texnologiyasi va xizmati. Elementlarning tarkibi va ishlash prinsipi nuqtai nazaridan, elektron pochta oddiy pochta tizimini amalda takrorlaydi, u ikkala shartni ham, xarakterli xususiyatlarni ham o‘z ichiga oladi - foydalanish

qulayligi, xabarlarni istalgan vaqtda uzatish, yetarlicha ishonchlilik va shu bilan birga kafolatlangan yetkazib berish.

Elektron pochtani standart interfeys quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- turli adresatlar kelgan xatlar ro'yxati, xatni yuboruvchilar haqidagi ma'lumotlar;

- xabarni o'qish oynasi;

- xabarga javob berish va yozish shakli;

- fayllarni biriktirish tugmalari;

- turli xabarlarni saqlash uchun papkalar (kiruvchi, yuborilgan, o'chirilgan va foydalanuvchi);

- ba'zi elektron pochta xizmatlari elektron pochta xabarlarini avtomatik tarjima qilish, viruslarga tekshirish, shablonlarni yaratish va bir nechta qabul qiluvchilarga elektron pochta xabarlarini yuborish kabi keng imkoniyatlarni taklif qiladi;

- pochta manzili yoki **e-mail** foydalanuvchini topish uchun foydalaniladigan pochta qutisi manzilidir. Har bir foydalanuvchi alohida yoki bir nechta manzilga ega bo'lishi mumkin. Manzil foydalanuvchi nomi, @ belgisi va domen nomidan iborat, masalan, x.urduzhev@gmail.com

- Elektron xat yoki elektron pochta foydalanuvchi yuboradigan yoki oladigan xabarlar;

- **Вложение** - xatga biriktiriladigan fayl;

- Spam - reklama va virusli xabarlar;

- Pochta mijosi - elektron pochta imkoniyatlaridan foydalanish imkonini beruvchi dastur yoki veb-interfeys.


Internet xizmatlari ko'plab elektron pochta xizmatlarini taklif etadi. Masalan, <https://umail.uz>, www.mail.uz, www.mail.ru, www.gmail.com, **Яндекс Почта, Rambler**

8.1.10-vazifa. Gmail.com da elektron pochta ochish va u bilan ishlash.


Ko'rsatmalar:

1-qadam. Kompyuter, noutbuk, telefon qurilmalarning birida brauzerni ochib (8.1.31-rasm.) - rasmiy Google veb-saytiga o'tiladi (Google.ru yoki Google.com). Qidiruv tizimining asosiy sahifasini yuqori o'ng burchakdagi "Pochta" tugmasi bosilib pochta bo'limiga o'tiladi.

Natijada **Gmailga kirish (vxod)** sahifasi ochiladi. Agar foydalanuvchini **gmail.com** da pochta mavjud bo'lsa, elektron pochta manzili yoki telefon raqami kiritiladi. So'ngra **Далее** (keyingi) tugmasi bosib, akkaunt paroli yoki elektron pochta nomi kiritiladi.



8.1.31-rasm.




8.1.32-rasm.

2-qadam. Yangi pochta ochish uchun **Создать** akkaunt tugmasini bosib va **Имя** maydoniga ism kiritiladi (8.1.32-rasm.) va **Далее** tugmasi bosiladi;

3-qadam. **Общие сведения**da **День** (Kun), **Месяц** (Oy), **Год** (Yil) va **Пол** (Jins) grafalari to'ldiriladi va **Далее** tugmasi bosiladi;

4-qadam. **Выберете адрес Gmail** (Gmail manzilini tanlang) dialog oynasidan **Выберите адрес электронной почты Gmail или создайте свой** (Gmail elektron pochthasini tanlang yoki o'zingiz tuzing) maydonida dastur foydalanuvchiga kafedraattf@gmail.com, kafedraattf48@gmail.com kabi pochta nomlarni taklif etadi;


Создать собственный адрес Gmail yozuviga bayroqcha oʻrnatamiz va **Создайте адрес Gmail** maydonchasiga pochta nomini yozib (masalan, kafedra.at.tf.2024) **Далее** tugmasini bosamiz (8.1.33-rasm.);



9.1.33-рasm.

4) **Создайте надежный пароль** (Ishonchli parolni tanlang) oynasida dastur **Выберите адрес электронной почты Gmail или создайте свой** yozuvi bilan tuziladigan parol harflar, raqamlar va boshqa belgilardan iborat boʻlishi haqida eslatma beriladi. **Парол** maydonga parol, **Подвердить** (Tasdiqlash) maydoniga parol qayta kiritilib, **Далее** tugmasi bosiladi (8.1.34-rasm.).

5-qadam. Проверьте данные (Maʼlumotlarni tasdiqlang) oynasida quyidagi yozuvlar chiqadi (8.1.34-rasm.) : “kafedra”(pochta egasini



9.1.34-рasm.

nomi), kafedra.at.tf.2024@gmail.com (elektron pochta nomi). **Далее** tugmasi bosilsa tuzilgan elektron pochta yuklanadi.

Mavzu bo'yicha test savollari:

1) Tarmoqqa ulangan kompyuterning IP- adresi qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?

A) 192,158,73,56, bu yerda 192 soni foydalanuvchi kompyuteriga tegishli.

B) 192;158;73;56; bu yerda 158 soni foydalanuvchi kompyuteriga tegishli.

C) 192,158,73,56, bu yerda 73 soni foydalanuvchi kompyuteriga tegishli.

D) 192.158.73.56 bu yerda 56 soni foydalanuvchi kompyuteriga tegishli.

2) Kompyuter tarmog'ida IP -manzil nima?

A) Shaxsiy tarmoqqa kirish paroli

B) Tarmoq tugunining noyob identifikatori

C) Veb-ga asoslangan dasturiy mahsulot

D) Internetning uy sahifasi

3) Kompyuterlarni lokal-mahalliy tarmoqqa ulash uchun qanday qurilmalardan foydalaniladi?

A) Marshrutlovchilar

B) Modemlar

C) Komutatorlar

D) Kalkulyatorlar

4) TCP/IP protokoli nima?

A) Tarmoq ma'lumotlarini shifrlash usuli

B) Tarmoq ulanishlarining standart modeli

C) Internetda ma'lumotlar almashish qoidalari

D) tarmoqni avtomatik sozlash usuli

5) Barcha tugunlar markaziy tugun (узел) ga ulangan sxema qanday tarmoq topologiyasi bo'ladi?

A) Yulduz (Звезда)

B) Xalqa (Кольцо)

C) Daraxt (Дерево)

D) To'r (Сетка)

- 6) Kompyuter tarmoqlarida LAN qisqartmasi nimani bildiradi?
- A) Mahalliy avtomatik tarmoq
 - B) Mahalliy almashinuv tarmog‘i
 - C) Mahalliy kirish tarmog‘i
 - D) Mahalliy (lokal) tarmoq (LAN)
- 7) Tarmoq orqali fayllarni uzatish uchun qanday protokol ishlatiladi?
- A) HTTP
 - B) FTP
 - C) TCP
 - D) UDP
- 8) IPv6 nima?
- A) Internetda ma’lumotlarni uzatish protokolining yangi versiyasi, hozirgi vaqtda IPv4 ishlatilmoqda
 - B) Tarmoqqa kirish uchun standart parol
 - C) Kompyuter tarmog‘idagi viruslardan himoya turi
 - D) Kompyuterni masofadan boshqarish dasturi
- 9) Kompyuter tarmoqlarida DNS deganda nima tushuniladi?
- A) Yuqori tezlikdagi tarmoq kabeli
 - B) Internet orqali kompyuterga masofadan kirish uchun dastur
 - C) Domen nomlari tizimi
 - D) Internet - provayder
- 10) Tarmoq router marshrutlovchisi va kommutator o‘rtasidagi farq nima?
- A) Router ma’lumotlarni faqat tarmoqqa uzatadi va kommutator esa ma’lumotlarni tashqi tarmoqqa uzatadi
 - B) Router tarmoq ulanishlarni ta’minlaydi va kommutator esa tarmoq ichidagi ulanishlarni ta’minlaydi
 - C) Router ma’lumotlarni markaziy tugun orqali uzatishi kerak va kommutator tugunlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ulashi mumkin
 - D) routerlar va kommutatorlar bir xil qurilma
- 11) Ofis yoki uy kabi kichik hududdagi kompyuterlarni ulash uchun qanday tarmoq ishlatiladi?
- A) WAN
 - B) LAN

C) MAN

D) VLAN

12) Wi-Fi simsiz tarmoq nima?

A) Internetga ulanmasdan ishlaydigan tarmoq

B) Radio to'liqinli ma'lumotlarni uzatish texnologiyasi

C) Barcha qurilmalar kabellar orqali ulangan tarmoq

D) Tarmoqdagi ma'lumotlarni himoya qilish turi

13) VPN texnologiyasi qanday ishlaydi?

A) Xavfsiz uzatish uchun tarmoqdagi ma'lumotlarni shifrlaydi

B) Viruslarning tarmoqqa kirishiga imkon beradi

C) Internetga ulanish tezligini sekinlashtiradi

D) Tarmoqdagi foydalanuvchi faoliyatini kuzatib boradi

14) HTTP protokoli nima?

A) Elektron pochta uzatish protokoli

B) Ovozli ma'lumotlarni uzatish protokoli

C) Internetda gipermatnli hujjatlarni uzatish protokoli

D) Qurilmalarni tarmoqqa ulash protokoli

15) Kompyuter tarmog'idagi pastki tarmoq niqobi (maska podseti) nima?

A) Tarmoqdagi qurilmaning nomi

B) Qurilma uchun ma'lum bir IP -manzilni ko'rsatish

C) Tarmoqdagi qurilmalarning mavjudligi haqida ma'lumot

D) IP -manzilning tarmoq qismini aniqlash

16) Ethernet tarmoq kabeli nimani anglatadi?

A) Monitorni kompyuterga ulash uchun kabel

B) Qurilmalarni simsiz tarmoqqa ulash uchun kabel

C) Mahalliy tarmoqdagi kompyuterlarni ulash uchun kabel

D) Smartfonni zaryadlovchi kabel

17) Qaysi qurilmalar "Wi-Fi"ga simsiz ulanishni ta'minlaydi?

A) Disklar

B) Kompyuterlar

C) Modemlar

D) Routerlar

18) IP- telefoniya nima?

A) Elektron pochta orqali xabarlar almashish

- B) Ovozli ma'lumotlarni Internet orqali uzatish
- C) Operatorlarning telefon suhbatlarini yozib olish
- D) IP -manzillarning telefon katalogi (ma'lumotnomasi)

19) Kompyuter tarmog'idagi port nima?

- A) Kabellar uchun fizik ulanish
- B) Dasturiy ta'minot uchun litsenziya kaliti
- C) Tarmoqdagi dastur yoki xizmatning noyob-unikal raqami
- D) Ma'lumotlarni shifrlash sifati

20) Elektron pochta xabarlarini yuborish uchun... protokoli ishlatiladi.

- A) SMTP
- B) HTTP
- C) FTP
- D) POP3

21) Bir nechta tarmoqlarni bitta tarmoqqa birlashtirish uchun qanday qurilmalardan foydalaniladi?

- A) Routerlar
- B) Kalitlar
- C) modemlar
- D) Shlyuzlar

22) Kompyuter tarmog'ida bulutli saqlash nima?

- A) Ma'lumotlarni saqlash uchun maxsus server
- B) Fayl almashish uchun virtual tarmoq
- C) Ma'lumotlarni zaxiralash uchun onlayn xizmat
- D) Xakerlikdan himoya turi

23) Tarmoqdagi ma'lumotlarni xavfsiz uzatish uchun qanday protokol ishlatiladi?

- A) HTTP
- B) FTP
- C) HTTPS
- D) TCP

24) Simsiz tarmoqlar kontekstida IEEE 802.11 nima?

- A) Simsiz lokal xisoblash tarmoqlari uchun standartlar
- B) Internetga efir orqali ulanish texnologiyasi

C) Tarmoq texnologiyalarini standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot

D) Simsiz yo'riqnoma ishlab chiqaruvchisi nomi

25) Kompyuterlar tarmog'ida DHCP nima?

A) Tarmoq qurilmalarini masofadan boshqarish dasturi

B) Tarmoqdagi qurilmalar uchun IP-manzillarni avtomatik sozlash tizimi

C) Kompyuter tarmog'idagi ma'lumotlarni shifrlash texnologiyasi

D) Tarmoq uskunalari boshqarish

26) FireWire nima?

A) Simsiz ma'lumotlarni uzatish texnologiyasi

B) Qurilmalarni kompyuterga ulash uchun yuqori tezlikdagi interfeys

C) Tarmoqdagi viruslarni aniqlash dasturi

D) Fayrvol kompyuter tarmog'idagi xavfsizlik devori

27) Internet orqali kompyuteringizga masofadan kirish uchun qanday protokol ishlatiladi?

A) FTP

B) TELNET

C) SSH

D) HTTP

28) Kompyuter tarmoqlarida VLANlar nima?

A) Qurilmalarni tarmoqqa ulash texnologiyasi

B) Virtual VLAN

C) Simsiz aloqa uchun maxsus adapter

D) Tarmoqni masofadan boshqarish dasturi

29) Qanday texnologiya Internetda ovozli va videoqo'ng'iroqlarni qo'llab-quvvatlaydi?

A) VoIP

B) VPN

C) FTP

D) VLAN

30) Simsiz tarmoqda WPA nima?

A) Tarmoqni hujumlardan himoya qilish uchun maxsus qurilma

B) Tarmoqda xavfsiz ishlash uchun shifrlash standarti

C) Internetga ulanish tezligini oshirish texnologiyasi

D) Tarmoqqa kirishni boshqarish dasturi

31) Bluetooth texnologiyasi nima?

A) Qurilmalarni qisqa masofalarga simsiz ulash texnologiyasi

B) Tarmoqni avtomatik sozlash tizimi

C) Kompyuterning tarmoqqa kabel orqali ulanishi

D) Internetga bepul kirish provayderi

32) Mahalliy tarmoqda fayl almashish uchun qanday protokol ishlatiladi?

A) FTP

B) HTTP

C) SMTP

D) TELNET

33) Kompyuter tarmog'idagi brandmauer - xavfsizlik devori nima?

A) Viruslarni yo'qotish uchun dasturiy mahsulot

B) Kompyuterlarni tarmoqqa ulash uchun qurilma

C) Ruxsat berilmagan kirishdan himoyalash tizimi

D) Korporativ Internet-provayder

34) Qaysi tarmoq topologiyasi ishonchlilik va xatolarga chidamliligini oshiradi?

A) Решетка (Panjara)

B) Кольцо (Xalqa)

C) Звезда (Yulduz)

D) Дерево (Daraxt)

35) Qidiruv tizimi - bu

A) foydalanuvchilarga kalit so'zlar yoki iboralarni kiritish orqali Internetda ma'lumot topishga imkon beruvchi onlayn xizmat

B) brauzer

C) Daraxtsimon aloqa tarmog'i

D) Panjarasimon aloqa tarmog'i

36) Qaysi brauzer Google tomonidan ishlab chiqilgan?

A) Mozilla Firefox

B) Google Chrome

C) Safari

D) Microsoft Edge

- 37) Firefox brauzerini qaysi kompaniya ishlab chiqqan?
- A) Google
 - B) Mozilla
 - C) Apple
 - D) Microsoft
- 38) Windows 10 operatsion tizimida qaysi brauzer o'rnatilgan holda (brauzer po umolchaniyu) taqdim etiladi ?
- A) Google Chrome
 - B) Mozilla Firefox
 - C) Safari
 - D) Microsoft Edge
- 39) Apple qurilmalari foydalanuvchilari orasida mashhur bo'lgan brauzerning nomi nimae?
- A) Google Chrome
 - B) Mozilla Firefox
 - C) Safari
 - D) Opera
- 40) Qaysi qidiruv tizimi eng mashhur hisoblanadi va keng qo'llaniladi?
- A) Bing
 - B) Google
 - C) Yahoo
 - D) Yandex
- 41) Qaysi qidiruv tizimi xaritalari va navigatsiya xizmatlari bilan mashhur?
- A) Google
 - B) Bing
 - C) Yahoo
 - D) Yandex
- 42) Googlening MDH davlatlari ichidagi asosiy raqobatchisi qaysi qidiruv tizimi?
- A) Bing
 - B) Google
 - C) Yahoo
 - D) Yandex

43) Brauzerdagi qiziqarli veb-sahifalarga havolalarni saqlashga imkon beradigan funksiya nomi nima?

- A) Zakladkalar
- B) Tarix (История)
- C) Qidiruv (Поиск)
- D) Ссылки (Havolalar)

44) Brauzerda veb-sahifani yangilash uchun qanday buyruq ishlatiladi?

- A) Ctrl + R
- B) Alt + F4
- C) Shift + Delete
- D) Ctrl + C

45) Google Переводчик dasturida foydalanuvchining oddiy matnini tarjima qilish uchun (masalan, rus-o'zbek tili)...

- A) Изображения (Tasvirlar) vkladkasi faollashtiriladi.
- B) Документы (Hujjatlar) vkladkasi faollashtiriladi.
- C) Текст (Matn) vkladkasi faollashtiriladi.
- D) Сайты (Saytlar) vkladkasi faollashtiriladi.

46)... kompyuter tarmog'i foydalanuvchilari o'rtasida elektron xabarlarini jo'natish va qabul qilish texnologiyasi va xizmati.

- A) Yandex qidiruv tizimi
- B) Google qidiruv tizimi
- C) Google Chrome brauzeri
- D) Elektron pochta

47) Qaysi qatorda onlayn tarjimon dasturlari to'liq keltirilgan?

- A) Яндекс Переводчик
- B) Яндекс Переводчик, Google Переводчик
- C) Яндекс Переводчик, Google Переводчик, DeepL, prompt.com
- D) Яндекс Переводчик, Google Переводчик, DeepL, Google Chrome

48)... turli saytlarga kirishni ta'minlaydi, veb-sahifalar tarkibini ko'rsatadi, ma'lumotlarni qayta ishlaydi, so'rovlarni bajaradi va veb-saytlarning turli elementlari bilan o'zaro aloqada bo'lishga imkon beradi.

- A) Elektron pochta
- B) Brauzer

C) IP- adres

D) URL - adres

49)... - bu foydalanuvchilarga kalit soʻzlar yoki iboralarni kiritish orqali Internetda maʼlumot topishga imkon beruvchi onlayn xizmat.

A) Elektron pochta

B) Qidiruv tizimi

C) IP- adres

D) URL - adres

50) IP-adreslar...

A) doimo statik manzilga ega boʻladi.

B) doimo dinamik manzilga ega boʻladi.

C) statik yoki dinamik manzillardan iborat boʻladi.

D) bir xil boʻladi, masalan, SamDVMChBUning <https://ssuv.uz> sayti dinamik xususiyatga ega

51) Toʻgʻri yozilgan internet sayti qatorini aniqlang.

A) <https://ssuv.uz> - SamDVMChBU sayti

B) <https://ssuv.uz> - SamDVMChBU sayti

C) <https://ssuv.uz> - SamDVMChBU sayti

D) <https://ssuv.uz-ru> - SamDVMChBU sayti

52) Toʻgʻri yozilgan internet sayti qatorini aniqlang.

A) <https://ssuv.uz/ru> - SamDVMChBU sayti

B) <https://ssuv.uz> - SamDVMChBU sayti

C) <https://ssuv.uz/en> - SamDVMChBU sayti

D) <https://ssuv.uz-com> - SamDVMChBU sayti

53) Notoʻgʻri tasdiq keltirilgan qatorni aniqlang.

A) Veb-sahifa Internet tarmogʻidagi gipermatnli hujjat.

B) Veb-sayt-bu umumiy mavzu va “дизайн” bilan birlashtirilgan, giperhavollar bilan bogʻlangan veb-sahifalar guruhi.

C) Veb-server, bu HTTP (yoki HTTPS) protokoli orqali soʻrovlarni qabul qiladigan va ularga veb-sahifalar va qoʻshimcha maʼlumotlarni (rasmlar, ovozli fayllar, videofayllar) qaytarish orqali javob beradigan dastur.

D) Keltirilgan tasdiqlar qidiruv tizimlari brauzerlar tegishli emas.

54) IP – telefoniya nima? IP telefoniya – bu ...

A) IP protokoli yordamida Internet orqali ovozli ma'lumotlarni uzatish texnologiyasi.

B) IP protokoli yordamida Internet orqali matnli ma'lumotlarni uzatish texnologiyasi.

C) IP protokoli yordamida Internet orqali rasmiy ma'lumotlarni uzatish texnologiyasi.

D) Ixtiyoriy protokol yordamida Internet orqali matnli ma'lumotlarni uzatish texnologiyasi.

55) Microsoft tomonidan qaysi qidiruv tizimi yaratilgan?

A) Bing

B) Google

C) Yahoo

D) Yandex

Mavzu bo'yicha nazorat savollari⁷:

1) DHCP nima va uning kompyuter tarmoqlaridagi roli qanday?

2) DNS -serverlar kompyuter tarmoqlarida qanday rol o'ynaydi?

3) IP -manzil nima va u tarmoqda nima uchun kerak?

4) IP -manzil nima va uning kompyuter tarmoqlarida maqsadi nima?

5) IPv4 va IPv6 Internet protokollari (IP) o'rtasidagi farqni tushuntirib bering?

6) LAN (mahalliy), MAN (mintaqaviy) va WAN (global) tarmoqlari deganda nimani tushunasiz?

7) VPN nima va u onlayn ma'lumotlar xavfsizligini qanday ta'minlaydi?

8) Bulut (Cloud) texnologiyasi nima va u kompyuter tarmoqlarida qanday ishlatiladi?

9) Kompyuter tarmog'i (LAN, WAN) nima?

10) Kompyuter tarmog'i orqali ma'lumotlarni uzatish qanday sodir bo'ladi?

⁷ Nazorat va test savollarini tuzishda su'niy intellekt botlaridan foydalanilgan.

https://t.me/chatgpt_tgm_bot (@chatgpt_tgm_bot- HATGPT & NEYROSETI GPT)

- 11) Kompyuter tarmog'ida ma'lumotlarni uzatish qanday amalga oshiriladi?
- 12) Kompyuter tarmog'ida ma'lumotlarni uzatish uchun qanday protokollar qo'llaniladi?
- 13) Kompyuter tarmoqlari (masalan, elektron pochta, FTP va boshqalar) orqali qanday xizmatlar ko'rsatiladi?
- 14) Kompyuter tarmoqlarida qanday qurilmalar ishlatiladi?
Kompyuterlarni tarmoqqa ulash uchun qanday qurilmalar ishlatiladi?
- 15) Kompyuter tarmoqlarining asosiy turlarini tasniflang.
- 16) Kompyuterlarni tarmoqqa ulash uchun qanday turdagi kablardan foydalaniladi?
- 17) Lokal tarmoqni yaratish uchun qanday komponentlar kerak?
- 18) Proksi-server nima va u tarmoqda nima uchun ishlatiladi?
- 19) Router va kommutator nima va ular tarmoqda qanday ishlaydi?
- 20) Simsiz tarmoq (Wi-Fi) nima va u qanday ishlaydi?
- 21) Simsiz tarmoqlarning afzalliklari va kamchiliklari tasniflang?
- 22) Tarmoq arxitekturasini nima va u kompyuter tarmog'ining ishlashiga qanday ta'sir qiladi?
- 23) Tarmoq protokollari nima va ular qanday turlari mavjud?
- 24) Tarmoqqa kirishning turli usullari tasniflang?
- 25) Tarmoq topologiyalarining qanday turlari mavjud?
- 26) Xorijiy tillarni onlayn o'rganish uchun Internetning qanday xizmatlardan foydalanish mumkin?
- 27) Internetning qanday xizmatlar onlayn ta'lim va kurslarga kirishni ta'minlaydi?
- 28) Qanday xizmatlar onlayn to'lov imkoniyatlarini taqdim etadi?
- 29) Qanday xizmatlar veb-saytlar uchun veb-xostingni taklif qiladi?
- 30) Qanday xizmatlar Internet xavfsizligini ta'minlashga yordam beradi, masalan, antivirus dasturlari yoki VPN?
- 31) Xorijiy tillarni onlayn o'rganish uchun qanday xizmatlardan foydalanish mumkin?
- 32) Internet-brauzerlarning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
- 33) Hozir vaqtda qanday mashhur brauzerlar mavjud?
- 34) Brauzer kengaytmalari yoki plaginlari qanday xususiyatlarni taqdim etadi?

- 35) Internetdan foydalanishda xavfsizlikni ta'minlashda veb-brauzerlar qanday rol o'ynaydi?
- 36) Brauzeringizda shaxsiy rejimni qanday o'rnatish mumkin va u nima uchun kerak?
- 37) Brauzerlar zakladkalarini saqlash va boshqarish uchun qanday vositalarni taqdim etadi?
- 38) Brauzerni ko'rish tarixini qanday tozalash mumkin?
- 39) Qaysi brauzerlar qurilmalar o'rtasida ma'lumotlarni sinxronlashtirish imkoniyatini taklif qiladi?
- 40) Qaysi onlayn tarjimonlar eng mashhur va samarali hisoblanadi?
- 41) Internetning zamonaviy mashina tarjima tizimlari qanday ishlaydi?
- 42) Matnni boshqa tillarga tez tarjima qilish uchun tarjimonlar foydalanuvchiga qanday funksiyalarni beradi?
- 43) Tarjimonlar butun veb-sahifalarni tarjima qilish uchun qanday imkoniyatlarni taqdim etadilar?
- 44) Onlayn tarjimonlar yordamida yana qanday turdagi kontentlarni tarjima qilish mumkin?
- 45) Onlayn tarjimon tomonidan amalga oshirilgan tarjima sifatini qanday tekshirish mumkin?
- 46) Elektron pochta xizmatlarining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
- 47) Foydalanish uchun to'g'ri elektron pochta xizmatini qanday tanlash mumkin?
- 48) Elektron pochta bilan qulay ishlash uchun elektron pochta tomonidan mijozlarga qanday imkoniyatlar taqdim etiladi?
- 49) Xavfsiz elektron pochta asosiy tamoyillarini tasniflang.
- 50) Elektron pochta kiruvchi xatlarni avtomatik qayta ishlash uchun filtrlar qanday o'rnatiladi?
- 51) Elektron pochta xizmatlari ish jarayonlarini tashkil etish va rejalashtirish uchun qanday funksiyalarni ta'minlaydi?
- 52) Elektron pochta spam va viruslardan qanday himoya qilish mumkin?
- 53) Elektron pochta xabarlarini arxivlash va saqlash uchun qanday imkoniyatlar mavjud?

54) Pochta qutisidagi yangi xabarlar va hodisalar haqida xabarnomalar va ogohlantirishlarni qanday o‘rnatiladi?

55) Elektron pochta briktirishlar (vlojenie) bilan ishlash uchun qanday imkoniyatlar taqdim etilgan?

9-amaliy mashg'ulot: Sohada bulutli texnologiyalar

Bulutli texnologiyalar haqida

Sohada bulutli texnologiyalaridan foydalanish

Ta'limda bulutli texnologiyalar

Masofadan o'qishda bulutli texnologiyalar

Bulutli texnologiyalar haqida

Bulutli texnologiya

Bulutli texnologiya – bu axborot texnologiyalarining taqdim etish modeli bo'lib, u tarmoq resurslari va xizmatlarni foydalanuvchilarning Internetdagi so'rovga binoan amalga oshiradi.

Axborotni saqlash va ma'lumotlarni mahalliy serverlarda yoki kompyuterlarda qayta ishlashning an'anaviy modelidan farqli o'laroq, bulutli texnologiyalar dunyoning istalgan nuqtasidan moslashuvchanlik, miqyoslilik va resurslarga oson kirishni taklif qiladi.

Bulutli texnologiya – bu ma'lumotlarni qayta ishlash markazlarida joylashgan uzoqlashgan serverlar yordamida Internet orqali hisoblash quvvati, ma'lumotlarni saqlash va boshqa xizmatlarni taqdim etish usuli. Foydalanuvchilar ushbu xizmatlarga Internetga ulangan istalgan qurilmadan o'z qurilmalarida ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash zaruratisiz kirishlari mumkin.

Bulutli texnologiyalar (**Cloud computing** - bulutli hisoblash) – xizmat bo'lib, u orqali foydalanuvchi Internet tarmog'i orqali maxsus hisoblash resurslarini oladi, masalan, operativ xotira, tarmoq ulanishlari, turli xil vazifalarni (shu jumladan axborot texnologiyalarni) hal qilish uchun disk maydoni.

Ommaviy bulutli texnologiyalar:

- Amazon Web Services (AWS) - Amazon veb-xizmatlari
- Microsoft Azure
- Google Cloud Platform – Google bulutli platformasi
- IBM Cloud – IBM buluti
- Oracle Cloud – Oracle buluti

- Alibaba Cloud – Alibaba buluti
- VMware Cloud- VM dasturi buluti
- Salesforce
- Adobe Creative Cloud
- Dropbox

Bulutli texnologiyalarning asosiy xususiyatlari:

1) Moslashuvchanlik va miqyoslilik: foydalanuvchilar joriy ehtiyojlariga qarab foydalaniladigan resurslar hajmini oshirishi yoki kamaytirishi mumkin. Bu IT infratuzilmadan samarali foydalanish va resurslarni tejash imkonini beradi.

2) Kirmoq (**Доступность**): foydalanuvchilar bulutli manbalarga Internetga ulangan har qanday qurilmadan kirishlari mumkin. Bu ishlashni osonlashtiradi va loyihalarda masofadan turib hamkorlik qilish imkonini beradi.

3) Xavfsizlik: bulutli provayderlar ma'lumotlarni shifrlashni, ko'p darajali xavfsizlik choralari va ma'lumotlarni zaxiralashni o'z ichiga olgan yuqori darajadagi ma'lumotlarni himoya qilishni ta'minlaydi.

4) Tejamkorlik: bulutli texnologiyalardan foydalanish kompaniyalarga apparat, texnik xizmat ko'rsatish va dasturiy ta'minotni yangilashda tejash imkonini beradi.

Ommabop bulutli xizmatlarga **Amazon** veb-xizmatlari (AWS), **Microsoft Azure**, **Google Cloud Platform**, **Dropbox**, **Google Disk**, **Яндекс Диск** va boshqalar kiradi. Bulutli texnologiyalar ham biznes, ham xususiy foydalanuvchilar uchun muhim rol o'ynaydi, tarmoqdagi ma'lumotlar va resurslar bilan ishlashda qulaylik, samaradorlik va xavfsizlikni ta'minlaydi.

Bulutli texnologiyalarning asosiy funksiyalari

1) **Ma'lumotlarni saqlash**: bulutli texnologiyalarning asosiy funksiyalaridan biri bu berilganlarni bulutli saqlash imkoniyatidir. Bu kompaniya va foydalanuvchilarga (fizik serverlarni xarid qilish va ularni qo'llab-quvvatlashlarga sarf-xarajatlar qilmasdan) katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlashga imkon beradi.

2) **Zaxirali nusxalash**: bulutli texnologiyalar avtomatik ravishda ma'lumotlarning zaxira nusxalarini yaratishga imkon beradi, bu esa

apparat ishlamay qolganda yoki fayllar to'satdan o'chirilganda ma'lumotlarning yo'qolishidan himoya qiladi.

3) **Masofaviy (uzoqlashgan) kirish:** bulutli texnologiyalar foydalanuvchilarga dunyoning istalgan nuqtasidan o'z ma'lumotlari va ilovalariga Internetga kirish imkonini beradi. Bu esa foydalanuvchiga yo'lda yoki uyda ishlash uchun qulay vosita hisoblanadi.

4) **Birgalikda ishlash. Hamkorlik:** bulutli texnologiyalar bir nechta foydalanuvchilarga bir vaqtning o'zida bitta hujjat ustida ishlashga va real vaqtda ma'lumotlar va fayllarni almashishga imkon berish orqali loyihalarda hamkorlik qilishni osonlashtiradi.

5) **Masshtablilik va moslashuvchanlik:** bulutli texnologiyalar kompaniyalarga hisoblash resurslarini o'z ehtiyojlariga qarab baholash imkonini beradi, bu esa fizik serverlarni saqlash xarajatlari tejalishni ta'minlaydi.

6) **Ma'lumotlar xavfsizligi:** bulutli texnologiyalar ma'lumotlarni ruxsatiz kirishdan himoya qilish uchun shifrlash va boshqa xavfsizlik usullaridan foydalangan holda ma'lumotlarni yuqori darajada himoya qilishni ta'minlaydi.

Sohada bulutli texnologiyalardan foydalanish

Bulutli texnologiyalar foydalanuvchilarga o'z qurilmalarini axborot sig'imlarini band qilmasdan ma'lumotlarni Internet orqali saqlash va almashish imkonini beradi. **Google Disk** va **Яндекс Диск**lar bunday texnologiyalarni taqdim etadigan bulutli xizmatlardir.

Google Drive – bu **Google** korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan bulutli saqlash va hamkorlik xizmati. Bu foydalanuvchilarga har qanday formatdagi fayllarni saqlash, matnli hujjatlar, elektron jadvallar va taqdimotlarni onlayn yaratish, boshqa foydalanuvchilar bilan fayllarni almashish va ular ustida bir vaqtning o'zida ishlash imkonini beradi. **Google Disk Gmail, Google Photos** va **Google Docs** kabi boshqa **Google** xizmatlari bilan birlashtirilgan. Foydalanuvchilar o'z akkauntlaridagi fayllarga Internetga ulangan istalgan qurilmadan kirishlari mumkin.

Яндекс Диск – bu **Yandeks** kompaniyasini bulutli saqlash xizmati bo'lib, foydalanuvchilarga **Yandeks** serverlarida ma'lumotlarni bepul va pulli saqlashni ta'minlaydi (masalan, **Yandeks 360 Premium**).

Foydalanuvchilar **Яндекс Диск**da turli formatdagi fayllarni yuklashlari, ularni papkalarga joylashtirishlari, boshqa foydalanuvchilar bilan fayllarni almashishlari va hujjatlar ustida onlayn ishlashlari mumkin. **Яндекс Диск** shuningdek, ma'lumotlarni zaxiralash va qurilmalar bilan sinxronlashtirishga ega, bu esa turli xil qurilmalarda foydalanishda qulaylik yaratadi.

Ham **Google Drive**, ham **Яндекс Диск** qo'shimcha haq to'lash evaziga qo'shimcha funksiyalarni taklif qiladi. Masalan, ma'lumotlarni saqlash sig'imlarini kengaytirish, kegaytirilgan xavfsizlik va hamkorlik funksiyalari. Ikkala xizmat ham uning xavfsizligini ta'minlash uchun ma'lumotlarni shifrlashni ta'minlaydi. Bundan tashqari, ular turli xil operatsion tizimlar va qurilmalarda qo'llab-quvvatlanadi, bu ularni ishlatish uchun qulay va moslashuvchan qiladi.

Google Disk bulut texnologiyasi – bu hujjatlar, rasmlar, videolar va boshqa fayllar ustida ishlash uchun bulutli saqlash va birgalikda ishlash xizmati. **Google Disk** bulutli xotirasi foydalanuvchilarga o'z fayllarini bulutga saqlash va ularga Internet orqali istalgan joydan kirish imkonini beradi.

9.1.1-vazifa. Google Drivening asosiy xususiyatlarini tasniflang.

1) **Fayllarni saqlash:** foydalanuvchilar hujjatlar, rasmlar, videolar va audio kabi barcha formatdagi fayllarni yuklashlari va saqlashlari mumkin.

2) **Birgalikda ishlash:** **Google Disk** foydalanuvchilarga bir hujjat ustida boshqa odamlar bilan ishlash, fayllarni almashish, ularni sharhlash va real vaqtda tahrirlash imkonini beradi.

3) **Sinxronizatsiyalash:** **Google Disk** fayllarni qurilmalar o'rtasida avtomatik ravishda sinxronlashtiradi, bu ularga turli xil qurilmalardan kirishga imkon beradi.

4) **Zaxirali nusxalash:** **Google Disk**dagi barcha fayllarning nusxalari zaxiralanadi, bu ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlaydi.

Google Disk shuningdek **Gmail**, **Google Docs**, **Google Sheets** va **Google Slides** kabi boshqa **Google** xizmatlari bilan birlashtirilgan bo'lib, fayllar bilan ishlashni va turli xizmatlar o'rtasida ma'lumot almashishni osonlashtiradi. **Google Disk** bulut texnologiyasi fayllarni saqlash va ular bilan ishlashning qulay va xavfsiz usulini taqdim etadi, ma'lumotlarga

kirishni qulay va oson qiladi va foydalanuvchilarga loyihalar va hujjatlar ustida hamkorlik qilish imkonini beradi.

9.1.2-vazifa. Google Disk bulutli xizmatidan foydalanishni tasniflang.


1) **drive.google.com** havola yordamida **Google Disk** veb-saytiga o'ting;

2) Foydalanuvchini **Googleda** o'z akkaunti bo'lsa (masalan, **Gmail** pochta), tizimga o'z akkaunti bilan kiradi;

3) **Googleda** yangi akkaunt ochish uchun ro'yxatdan o'tish talab etiladi. Buning uchun **Создать аккаунт**(Akkaunt yaratish) tugmasi bosiladi;

4) **Google** akkuntiga kirilganda, **Google Drivega** xush kelibsiz nomli oyna ochiladi. Bu oynani o'ng tomonini yuqori burchagida **Приложение Google** (Google ilovalari) tugmasi bosilib, ochilgan servislar ro'yxatidan **Disk** tanlanadi;


6) **Google Drivedan** faylni boshqa foydalanuvchilar bilan bo'lishish uchun fayl yoki papka ustida sichqonchani o'ng tugmasi bosiladi (kontekst menyu) va **Поделиться** (Ulashish) opsiyasi tanlanadi. Faylni baham ko'rmoqchi bo'lgan hamkorning elektron pochta manzili kiritilib,



9.1.1-rasm.

kirish darajasi o'rnatiladi (masalan, ko'rish, sharhlash yoki tahrirlash);

7) Oynadagi pastga qaragan strelka tasvirli tugmani bosish orqali **Google Drivedan** fayllarni foydalanuvchi kompyuteriga yuklab olish mumkin;




9.1.2- rasm.

Foydalanuvchi **Google Disk** bulutida fayllar bilan ishlashi, hujjatlarni saqlashi va ularni boshqa foydalanuvchilar bilan baham ko‘rish mumkin bo‘ladi.

9.1.3-vazifa. Google Diskda matnli hujjatlar tuzing.


1-qadam. <http://drive.google.com> havolasi bilan **Google Disk** veb-saytiga o‘ting va **Google** akkauntga kiring.

2-qadam. "+Создать" tugmasini bosing (odatda yuqori chap burchakda) va **Google Документы** (Google Hujjatlar) ni tanlang.




3-qadam. **Google Disk**ni yangi fayliga nom beriladi. Buning uchun oynani **Новый документ** yozuvi belgilanib, fayl nomi yoziladi (9.1.5-rasm.).

Google Документы (Google Hujjatlar) matn muharriri veb-sahifasi interfeysi quyidagicha bo‘ladi (9.1.5-rasm.) :



9.1.14- rasm.

1) Veb-sahifa manzili va veb-sahifa sarlavhasi,



9.1.5- rasm.


<https://docs.google.com/document/d/1c-X5-h0HEZCS4ipUC-s7-UT4I0Fe2F-u84RAExxRTss/edit> - 104.Abdullaeva Rushana - Google Документы

2) **Google** hujjatini nomi, 104.Abdullaeva Rushana

3) **Файл, Правка, Вид, Формат, Инструменты** va **Расширения** menyulari.

4) Uskunalar satri.


5) Google hujjatini tuzish uchun fayl menyusidan **Создать** buyrug'i beriladi. Shuningdek **Файл** menyusida **Google** hujjatini tarmoqqa oid tayanch buyruqlari keltirilgan (9.1.7-rasm.).



9.1.6- rasm.

4-qadam. **Google** hujjatiga matnlar yoziladi va ob'ektlar o'rnatiladi, tahrirlash va formatlash ishlari bajariladi (9.1.8-rasm.).

5-qadam. **Google** hujjati onlayn formatida avtomatik tarzda xotiraga saqlanadi.





9.1.7- rasm. **Файл** ва **Вставка** менюси буйруқлари.


9.1.4-vazifa. Google Diskda elektron jadvallar bilan ishlash.

1-qadam. drive.google.com havolasi bilan **Google Disk** veb-saytiga o‘ting va **Google** akkauntga kiring.


2-qadam. "+Создать" tugmasini bosing (odatda yuqori chap burchakda) va **Google Таблицы** (Google jadvallar)ni tanlang.



9.1.9- rasm.



9.1.10- rasm.



9.1.8- rasm.

Topshiriqlar:

- 1) **Google Disk**da yangi jadvalga nom bering (9.1.9-9.1.10-rasmlar).
- 2) **Google Disk** elektron jadvalida 9.1.1-jadvalni tuzing.
- 3) Tuzilgan jadvalda (9.1.10-rasm.) : “Zotli buqalar bosh soni” (C3:C8 diapazon), “Sog‘in sigirlar bosh soni” (B3:B8 diapazon), “Boshqa qoramollar bosh soni” (B3:B8 diapazon) ma’lumotlari bo‘yicha “Jami qoramollar bosh soni” ko‘rsatkichlarini aniqlovchi formulalarni yozing

Tuman chorvachilik fermer xo'jaliklarida qoramollar bosh soni xaqida ma'lumot

№	Chorvachilik fermer xo'jaliklari nomi	Zotli buqalar bosh soni	Sog'in sigirlar bosh soni	Boshqa qoramollar bosh soni	Jami qoramollar bosh soni
1.	Botir chorvasi	10	60	140	
2.	Zafarabod	18	72	160	
3.	Muborak chorvasi	7	35	76	
4.	Naslli chorvachilik	23	140	200	
5.	Sutchilik chorvachiligi	24	127	320	
6.	Ilm	6	70	128	
	Jami				

3) Botir chorvasi (C3:E3 diapazon), Zafarabod (C4:E4 diapazon), Muborak chorvasi (C5:E5 diapazon), Naslli chorvachilik (C6:E6 diapazon), Sutchilik chorvachiligi (C7:E7 diapazon) "Jami" ko'rsatkichlarini hisoblang.

1-bosqich. <http://drive.google.com> havolasi bilan **Google Disk** veb-saytiga o'ting va **Google** akkauntga kiring.

2-bosqich. "Создать" tugmasini bosib (odatda yuqori chap burchakda) va "Google Spreadsheets- **Google Таблицы** "ni tanlang.

3-bosqich. Yangi vkladkada elektron jadval ochiladi, unda ma'lumotlarni kiritish va formatlash kabi ishlar amalga oshiriladi.

	A	B	C	D	E	F
1	Tuman chorvachilik fermer xo'jaliklarida qoramollar bosh soni xaqida ma'lumot					
2	№	Chorvachilik fermer xo'jaliklari nomi	Zotli buqalar bosh soni	Sog'in sigirlar bosh soni	Boshqa qoramollar bosh soni	Jami qoramollar bosh soni
3	1.	Botir chorvasi	10	60	140	
4	2.	Zafarabod	18	72	160	
5	3.	Muborak chorvasi	7	35	76	
6	4.	Naslli chorvachilik	23	140	200	
7	5.	Sutchilik chorvachiligi	24	127	320	
8	6.	Ilm	6	70	128	
9		Jami				
10						

4-bosqich. Безымянная Таблица (Nomsiz jadval) maydonini (odatda u yuqori chap burchakda) bosish orqali jadvalga nom bering va yangi nom kiriting.

5-bosqich. Jadvalga yangi **Лист**(varaq) qo'shish uchun varaqlarning nomlari ko'rsatilgan pastki qismidagi +plyus belgisini bosing **Sheet1**-Varaq1, **Sheet2**-Varaq2 va boshqalar.).

6-bosqich. Jadvalni formatlash uchun asboblarni paneldagi tugmani buyruqlardan foydalaning (ma'lumotlarni kiritish, formulalar yozish, Шрифтиlar, tekislash, to'ldirish va hokazo.).

7-bosqich. Yaratilgan yangi jadvalni saqlash uchun ekranning yuqori chap qismidagi **"Файл"** tugmasini bosib, undan **"Сохранить как "**ni tanlang va jadval nomini ko'rsating.

8-bosqich. Tarmoqni boshqa foydalanuvchilari uchun jadvalga kirish, tahrirlash va boshqa ishlarni amalga oshirishga ruxsat sozlamalarini o'rnating.

Bu bosqichlar **Google Driveda** elektron jadval yaratish uchun asosiy qadamlar hisoblanadi.

Яндекс Диск bulut texnologiyasi nima?

Яндекс Диск – bu Yandeks tomonidan taqdim etilgan bulutga asoslangan ma'lumotlarni saqlash xizmati. Bulutli texnologiyalar foydalanuvchilarga kompyuter yoki mobil qurilmalarda joy egallamasdan fayllar va hujjatlarni Internet orqali saqlash va almashish imkonini beradi.

Яндекс Диск bulutli xotirasi bilan har qanday o'lcham va formatdagi fayllarni yuklash va saqlash, qulay saqlanadigan papkalar yaratish mumkin. Diskdagi hujjatlarni ko'rish va tahrirlash uchun boshqa foydalanuvchilar bilan bo'lishish imkoniyati mavjud bo'lib, u to'g'ridan-to'g'ri havolalar yoki taklifnomalar yuborish orqali amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, **Яндекс Диск** foydalanuvchiga qurilmalar o'rtasida ma'lumotlarni avtomatik ravishda sinxronlashtirishga imkon beradi, shuning uchun kompyuteringizga yuklangan fayllar avtomatik ravishda mobil qurilmangizda paydo bo'ladi va aksincha. Bu bulutli xotiradan foydalanishni istalgan vaqtda va dunyoning

istalgan nuqtasidan ma'lumotlarni tartibga solish va ularga kirish uchun qulay va samarali qiladi.


Bulutli texnologiyalar ma'lumotlar xavfsizligini ham ta'minlaydi, chunki ma'lumotlar unga kechayu kunduz kirish imkoniyatiga ega masofaviy serverlarda saqlanadi. Bu shuni anglatadiki, foydalanuvchilar qurilmaning ishlamay qolishi yoki tasodifiy o'chirilishi tufayli fayllarini yo'qotish xavfiga barham beriladi.

Bu, foydalanuvchilar qurilmalarining ishlamay qolishi yoki tasodifiy o'chirilishi tufayli fayllarini yo'qotish xavfi yo'qligini anglatadi.

9.1.5-vazifa. Яндекс Дискда ishlash, akkauntga kirish va yangi akaunt (Yandex ID) tuzish.


1) <https://disk.yandex.com.am> havoladan foydalanib rasmiy **Yandex** veb-saytiga o'ting.

2) Veb-sahifaning yuqori o'ng burchagidagi **Войти** (Kirish) tugmasini bosing.




9.1.12-rasm.

3) **Яндекс**da akkauntlar “**Яндекс ID**” kabi belgilanadi. Foydalanuvchi “**Яндекс ID**” akkauntiga ega bo‘lsa oynadan **Войти** (Kirish) tugmasi bosilib tegishli maydonga elektron pochta manzili yoki telefon raqami kiritilib **Войти** buyrug‘i beriladi (9.1.13-rasm.). Yangi akkaunt tuzish uchun shu ochilgan dialog oynasidan “**Создать ID**” tugmasini bosib tegishli ma’lumotlarni ketma-ket kiritish amalga oshiriladi. Shuningdek, **Начат пользоваться** (Foydalanishni boshlash) tugmasi bosish orqali ochiladigan oynani **Регистрация**



9.1.13- rasm.

4) Muvaffaqiyatli avtorizatsiya yoki ro‘yxatdan o‘tgandan so‘ng, tizim foydalanuvchini **Яндекс Диск** sahifasiga yo‘naltiradi (9.1.14-rasm.).



9.1.14- rasm.

Продукты	Приложения	Решения	Информация	Контакты
Почта	Диск для компьютера	Для пользователей	Тарифы	Круглосуточная поддержка
Диск	Диск для iOS	Для бизнеса	Подарочные сертификаты	Справка
Телемост	Диск для Android	Для образования	Условия использования Диска	
Документы	Почта для iOS	Скидка для студентов	Условия использования Почты	
Календарь	Почта для Android		Лицензионное соглашение	
Заметки				

9.1.15- rasm..


5) Endi foydalanuvchi **Яндекс Диск**ga fayllarni yuklashni boshlashi, papka va fayllar tuzishi, ularni boshqa foydalanuvchilar bilan o'zaro almashish kabi ishlarni amalga oshirishi mumkin.

